

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**SHAVKAT MATYAKUBOV**

**AN'ANAVIY XONANDALIKDA  
O'QITISH USLUBIYATI**

*Oliy musiqiy o'quv yurtlarining  
bakalavr bosqichi uslubiyat fani uchun  
o'quv qo'llanma*

«Musiqa» nashriyoti  
Toshkent  
2015

**85.31  
M 31**

**Matyakubov Shavkat**

An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubiyati: o'quv qo'llanma /Sh.Matyakubov. – Toshkent: «Musiqqa», 2015. 84 b.

**UO'K 7.091.1(075)**

**KBK 85.31**

***Mas'ul muharrir:***

M.Tojiboyev – O'zbekiston davlat konservatoriysi  
«An'anaviy ijrochilik» kafedrasi professori,  
O'zbekiston xalq hofizi

***Taqrizchilar:***

R.Q.Qosimov – O'zbekiston davlat konservatoriysi  
professori

B.Do'stmurodov – V.A.Uspenskiy nomidagi RIMMAL  
An'anaviy xonandalik bo'limi mudiri,  
O'zbekiston xalq hofizi

Ushbu o'quv qo'llanma oliy musiqiy o'quv yurtlari bakalavr bosqichining an'anaviy xonandalik mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada xonandalik uslubiyatining tarixi, qo'llanilishi, ovoz turlari, ularda tovush hosil qilish, ijrochilik nafasi, ijro imkoniyatlari xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, an'anaviy xonandalar ansamblari, hamnafas—jo'rovozlar ijro qiladigan mumtoz va bastakorlar yaratgan asarlar, O'zbekiston an'anaviy xonanda o'qituvchi va professorlari tomonidan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalar va pedagogik repertuarlarga izohlar ham berilgan.

Qo'llanma muallifning ko'p yillik izlanishlari samarasi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, umumuslubiyat masalalariga qaratilgandir.

Kitob davlat ta'lif standartlariga binoan san'at yo'nalishidagi o'quv reja va dasturlar asosida tayyorlangan.

ISBN 978-9943-307-79-7

© «Musiqqa» nashriyoti, 2015.

© Sh.Matyakubov, 2015.

---

---

## 1. KIRISH

Uslubiyat fani musiqiy pedagogikaning tarkibiy qismlaridan bo‘lib, yunoncha metod-tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish, ado etish, amalga oshirish usuli, maqsadga eltuvchi yo‘l degan ma’nolarini bildiradi.<sup>1</sup> Metodikaning maqsad va vazifalari mutaxassislar tayyorlash ishini belgilangan reja asosida olib borishdan iboratdir.

Bu fan O‘zbekiston hamda xorijiy Yevropa xonanda-pedagog va ijrochi ustozlarning tajribalarini umumlashtirgan va ulardan kelib chiqqan holda, talabani yakka tartibda o‘qitish va unga individual yondoshish qonuniyatlari va uslublarini o‘rgatadi. Shuningdek, boshqa musiqiy nazariy fanlardan farqli o‘laroq mutaxassislik fani bilan chambarchas bog‘langan holda xonandalar tayyorlash sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mutaxassis qaysi soha egasi bo‘lishidan qatiy nazar uslubiyat malakalarini egallamagan bo‘lsa u o‘z kasbining egasi bo‘la olmaydi. Chunki barcha yo‘nalishlar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda har bir o‘qimishli mutaxassis keng bilimga va ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Uslubiyat xonandani o‘z kasbiga xususan kuylashga, ashula aytishga o‘rgatishdagi o‘rnii muhim ahamiyatga ega.

An’anaviy xonandalik metodikasi fan sifatida boshqa mutaxassisliklarga qaraganda ancha yosh, o‘zining yo‘l-yo‘riqlariga hamda kuylash, ijro etish va o‘rgatishning umumiyy qonuniyatlariiga egadir. Uslubiyat ijrochilik tarixi davomida turli bosqichlarda rivojlanib kelgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati «Rus tili». Moskva 1981, 461-bet.

Yevropacha belkanto uslubi bizga ruslar orqali kirib kelgan bo‘lsa, Rossiyaga ham Italiyadan kelganligi tarixdan ma’lum. Ikki daryo oralig‘ida esa kuylash, qiroat qilish va ashula aytishni o‘rgatishning asosan ustoz-shogird uslubi rivojlangan bo‘lib, o‘qitishning ma’lum bir tizimdagi uslubiyati shakllanmagan edi. 1918-yili Toshkentda va boshqa markaziy shaharlarda xalq konservatoriyaning ochilishi, 1924-yilda Toshkent davlat musiqa texnikuming tashkil qilinishi, 1928-yili Samarqandda ochilgan musiqa va xoreografiya ilmiy tekshirish instituti, Moskva konservatoriysi qoshidagi O‘zbek opera studiyasi va nihoyat Toshkent Davlat konservatoriyasida «Sharq musiqa fakulteti»ning ishlay boshlashi natijasida ko‘pchilik maqomdon ustozlar o‘qituvchi sifatida ishga taklif qilinadi. Bu ustozlar ichida F.Sodihov, R.Rajabiy, O.Alimaxsumov, M.Muxammedov, H.Nosirova, S.Qobulova, B.Dovidova, F.Mamatdaliyev, Q.Iskandarov va boshqalar bor edi.

Mustaqillik davriga kelib yuqorida nomlari keltirilgan ustozlarning iste’dodli shogirdlari yetishib chiqadi. Bularidan: M.Xudoynazarov, M.Tojiboev, K.Aminova, M.Ermatov, E.Ro‘zmatov, Z.Suyunova, M.Solihova, S.Niyozov, M.Karimova bo‘lib, ular ustozlari yaratgan uslublarni saqlagan holda uni yanada boyitishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. An’anaviy xonandalik bilan birgalikda uning pedagogikasiga oid ilg‘or fikrlarni ilgari surdilar va an’anaviy xonandalikning kuylash uslubiga quyidagi tamoyillarni asos qilib oldilar.

1. Ijro amaliyotida erishilgan mahoratni ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqib, asarning badiiy mazmunini ochib berishga xizmat qildirish.

2. Asardagi so‘zlarni (she’r va g‘azal) to‘liq ya’ni yamlamay, chaynalmay, yuksak badiiy ifodali ijro qildirish.

3. Asarni bo‘g‘inlarini noto‘g‘ri bo‘lmasdan (bir bo‘g‘in orasida nafas olmasdan) yuksak ijrochilik darajasida kuylatish.

4. Benazir badiiy ijro, ya’ni bastakor fikriga hamohanglik, belgilangan maqsaddan chetlashmaslik.

5. Sahnadagi tashqi ko‘rinishda oddiylik, artistlik ijro mahoratini egallash, har xil uslub va yo‘nalishlarga ergashmaslik.

Ana shu tamoyillar kelgusida shogirdlar yetishtirishning asosiy negizi bo‘lib xizmat qila boshladi.

Bora-bora uslubiyat turli masalalarining ilmiy asoslari va rivoji D.Mullaqandov, F.Mamadaliyev, M.Xudoynazarov O‘.Rasulov, R.Tursunov, K.Bo‘riyeva va boshqalarning shu sohaga bag‘ishlangan kitoblarida bayon etildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni va nufuziga ega bo‘lmoqda. Jumladan, mamlakatimizda boshlangan demokratik o‘zgarishlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ya’ni, ma’naviyat olamida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan xuquqiy jamiyatni barpo etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, milliy san’atimizni rivojlantirish, ta’lim tarbiya jarayoni mazmuniga milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalarini singdirish, yoshlarni milliy qadriyatlar, an’analor va ko‘p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Erkin fuqarolik jamiyatni tarkib toptirish eng avvalo mazkur jamiyatda yashayotgan kishilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetukligi va yuksak darajadagi aqliy salohiyatiga bog‘liq. Zero, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablariga ko‘ra mamlakatimizda yoshlarga estetik ta’lim tarbiya berish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta’lim islohotlari jarayonida yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, xususan an’anaviy ijrochilik yo‘nalishini boshlang‘ich, o‘rtta va oliy o‘quv muassasalarida tashkil qilinib, ta’lim uzluksizligini shakllantirilganligi, olib borilayotgan odilona siyosat natijasida milliy qadriyatlarimiz qad rostlay boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Mustaqilligimizning daslabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy me’rosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi»<sup>2</sup>, – deb yozadi.

---

<sup>2</sup> Islom Karimov. «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir». Toshkent, 2000, 32-bet.

Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» nomli kitobida yoshlarni hayotga tarbiyalash, ularni ma’naviy barkamol shaxs sifatida kamol toptirish. Milliy ovoz va ohang haqida fikr yuritib, shunday degan edi: «Insonning qulog‘i yengil yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam «Shashmaqom» singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi»<sup>3</sup> deb yosh avlodni milliy an’analar, qadriyatlar va madaniy merosimiz ruhida tarbiyalash zarurligini uqdirmoqdalar. Yoshlarda go‘zallikni his qilish va qadrlash kabi sifatlarni tarkib toptirishda milliy xonandalik san’atining alohida o‘rnii borligini yurtboshimiz 2010 yil 29 avgust V.A.Uspenskiy nomidagi ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseyi ochilishida «Biz milliy musiqamizga ko‘proq e’tibor qilishimiz lozim, chunki biz bu noyob durdonalarimizni dunyo miqyosiga olib chiqishimiz kerak. Yevropa madaniyatini rivojlantiruvchi davlatlar talaygina, lekin bizni san’atimizni faqatgina o‘zimiz rivojlantira olamiz»<sup>4</sup> deb ta’kidladilar.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘quvchilarni insonparvarlik, vatanga muhabbat, ilm va ma’rifatga intilish ruhida tarbiyalash, urf-odatlar, an’analarni qadrlashga undovchi omil bo‘lib, ular xonandalik san’atini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish va shu bilan birgalikda bo‘lajak ijrochilarni estetik tarbiyalashni, milliy san’atimizni chuqur rivojlantirish zarur. Darhaqiqat, bu bilan bizga chetdan kirib kelgan san’atlarni inkor etish kerak degani emas, balki barcha san’at turlarini to‘laligicha o‘rganib, mentalitetimizga uyg‘un e’tiqodlarni olib,

---

<sup>3</sup> Islom Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». Toshkent, 2008, 143-bet.

<sup>4</sup> Islom Karimov, V.A.Uspenskiy nomidagi ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseyi ochilishi, «Axborot» ko‘rsatuvi. 2010, 29-avgust.

kelajak avlod vakillariga to‘laligicha qoldirish asosiy vazifalardan ekanligini yurtboshimiz ta’kidlamoqdalar.

Mamlakatimizda xonandalikni o‘ziga kasb qilgan ijrochilar birinchi o‘rinda ovozlarini botiniy va zoxiri y xususiyatlarini mukammal bilishlari zarur. Shunday ekan maqom, dostonchilik, xalqona turli janrlarni ovoz nuqtai nazaridan o‘rganish dolzarb masala ekanligini anglatadi.

Xonandalik uslubiyatiga tegishli ayrim masalalar nashr etilgan kitob va maqolalarda, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida qisman yoritilgan.

Masalan: D.Mullaqandovning «O‘zbek xonandaligi borasida ba’zi juz’iy masalalar, rus vokal maktabi badiiy estetik talablari va tajribalari bilan bog‘liqligi.» Leningrad 1954-yil. San’atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasida asosan o‘sha zamon tilidan ovozlarning turi va tusi haqida gapirilib, rus vokal maktabi bilan taqqoslangan. Lekin e’tiborga molik tomoni shundaki qadimdan nomlanib, keyinchalik unutilayozgan ijro uslublarining atamalari va ularni ilmiy asosda o‘sha davr xonandalik maktablari bilan taqqoslab bergen.

Y.Rajabiyning «O‘zbek xalq musiqasi» (Toshkent 1958-yil.) «Shashmaqom» (Toshkent 1958 yil.) Olti tomlik kitoblarida: ustozlar tazkirasи, ijrochilarning qanday asarlar ijro etganliklari haqida so‘z yuritiladi. Bu manbalarda asosan maqomdon xonandalarning ijro dasturlari ko‘rsatilgan.

I.Rajabovning «Maqomlar masalasiga doir» (Toshkent 1963-yil.) kitobida: ovoz xususiyatlari asosan maqom nuqtai nazaridan qisman yoritilgan.

R.Yunusov yozgan, ustoz, O‘zbekiston xalq hofizi Fattohhon Mamadalievning «Milliy musiqa ijrochiligi masalalari» kitobida (Toshkent, 2001-yil). Ovozlar har xil atamalar bilan yuritilgan va bu atamalar faqatgina Farg‘ona vodiysi sozandalari o‘rtasida qo‘llanilgan. Bu kitobning qiymati ham ulardagi ovozlarning atamalaridadir.

O.Matyoqubovning «Maqomot» (Toshkent, 2004-yil) kitobida xonandalik san’ati haqida atroflicha so‘z yuritiladi.

O'.Rasulovning «An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi» (Toshkent, 2006-yil) kitobida: ovozni ishlatish borasida kelajak avlod xonandalari uchun foydali maslahatlar bor. Musiqachi sifatida bu yerdagi bilimlar xonandalarni boshlang'ich bosqichlariga qo'l keladi.

S.Begmatovning «Hofizlik san'ati» (Toshkent, 2007-yil) kitobida xonandalar ovozlari ularni parvarishlash, sadolantirish kabi sir-asrорlari yoritilgan. Hofizlik san'ati va uning darajalari xususidagi mavzu e'tiborga molikdir.

«Xonandalik san'ati, Jahon va O'zbek milliy an'analari» (Toshkent, 2009-yil) kitobda M.A.Hamidova asl mutaxassisligi akademik vokal sohasida bo'lganligi uchun yevropa ovoz san'ati borasidagi ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor. Ayniqsa bel-canto ovoz chiqarish uslubini davrlarga ajratilganligi hali mamlakatimizda bu darajada yoritilishi kuzatilmagan. Shu kitobdag'i O.Ibrohimovning milliy xonandalikka bag'ishlangan qator mavzularida ovoz san'atining ishlatish usullari va uslublari borasida so'z yuritilgan.

Q.Qurbanovning «Epik xonandalik» mavzusi ijrolar va milliy xonandalar ovozini musiqiy xususiyatlari ko'rsatib bergen.

Rus va evropa ovoz mutaxassislari ovoz xususiyatlari hamda uslubiyati borasida ko'plab ilmiy izlanishlar va har xil tajribalar qilishgan. Ma'lumki, ovoz hosil qilish uning havoga taralishi, sadolanishi fizik hodisadir. Shu nuqtai nazardan bu sohada fizika fani olimlari ham ilmiy izlanishlar olib borib, ko'p yutuqlarga erishishgan. Yangiliklari haqida ko'plab kitoblar, ocherk, monografiya, maqolalar va to'plamlar yozishgan. Nemis olimi; G.Gelmgolts, rus olim va mutaxassisleri; G.A.Dmitriev, D.Aspelund, I.K.Nazarenko, N.K.Lisenkov, V.I.Bushkovich, E.Petrova, P.V.Golubev, Z.Markova, M.Lvova, L.Baranek, V.Bagadurov, P.Baranovskiy, Yu.Barsov, L.Dmitriev, A.Egorov, E.Yutsevich, V.Morozov, D.Rabotnov, O'zbekistondan; I.P.Brizgalov, M.Rizaeva hamda ko'plab olimlar shular jumlasidandir.

Ma'lumki mumtoz san'atimiz otadan-o'g'ilga, ustozdan-shogirdga og'zaki ravishda hozirgi kunga qadar sayqallanib, yetib keldi. Jumladan Buxoro-Samarqand maqomchilik san'ati,

Farg‘ona-Toshkent mumtoz san’ati va Xorazm ijrochilik maktablari mavjud.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Uslubiyat fanining maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Ushbu fanning tarixiy rivojlanish bosqichlarini bilasizmi?
3. Ustozi sozanda pedagoglar tomonidan ilgari surilgan ijrochilik tamoyillari nimalardan iborat?
4. Mustaqil mamlakatimiz ta’lim islohotlarida musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi o‘z aksini topganmi?
5. Musiqiy ta’lim rivojiga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e’tibor nimalarda namoyon bo‘lmoqda?

## **2. ASHULA IJROCHILIK JARAYONINING JISMONIY VA RUHIY ASOSLARI**

Ma’lum bir musiqiy asar uch xil ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Birinchisi nota va g‘azal matni, ya’ni yozuv asosida bo‘lsa, ikkinchisi, ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda va uchinchisi, tinglovchining hayotiy tajribasi (sama’–samo) va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida asarni haqiqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi.

Musiqiy asar, maqom mumtoz ashulani ijro qilish faqat o’sha yaratuvchi, bastakor yoki kompozitor notaga tushirgan fikru hayollarining talqini bo‘libgina qolmasdan, ijrochi uchun o‘ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi uchun unda xonandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emotsiyasi (histuyg‘u va hayajon) hamda eng asosiysi ovoz ruhiyati faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy ovoz sifati, tembrining go‘zal va boyligi, pardalarning (intonatsiya) tozaligi, musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo‘shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog‘i lozim. Ushbu shaxsiy sifatlarning barchasi inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining

tarkibiy qismi bo'lib, hali yaxshi tadqiq qilinmagan musiqiy (psixologiya) ruhshunoslik sohasiga aloqadordir.

Inson faoliyatining barcha turlarida bo'lgani kabi, diqqat musiqa san'atida ijrochining hissiy, intellektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa jamoa shaklida ijro qilishda u juda muhimdir. Ya'ni ansambl bo'lib kuylashdan avval musiqa rahbari (doira, chang cho'pi)ning ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaxon va jo'rnavoz-jo'rovoz o'rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada diqqat deb ataladi.

Ayniqsa an'anaviy xonandalar jismoniy va ruhiy jihatlarining barcha tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ijro jarayonida ashulachining murakkab markaziy asab tizimi, butun sezgi a'zolari, ko'rish, eshitish, xotira, harakat mayllari, musiqiy-estetik tasavvurlari va aqliy faoliyatining bir-biriga bog'langan, mujassam holda chiroyli kuylashda qatnashishini guvohi bo'lamiz. Bularidan sezgi – inson organizmi tomonidan eshitish, ko'rish, hid bilish, tana sezgisi, ta'm bilish va h.k. a'zolari orqali moddiy dunyoni anglaydi.

Bu murakkab jarayonda xonandaning aql-idroki va ruhiy faoliyati kuylashga qaratilgan bo'lib, u o'z ovozi va yonidagi hamnafaslari ijrosi yoki jo'rnavoz chalayotgan musiqiy tovushlarni eshitishi, nota matni yoki boshliq harakatini ko'rishi, parda, tessitura, sakrash va avjlarni ovoz apparatida his qilishi, sezishi natijasida bosh miyaga axborot yetadi. Narsalar yoki hodisalarining sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishiga idrok deyiladi. Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O'z ijrosini eshitgan xonanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi. Ammo umumlashtirish va xulosa yasash uchun inson fikrlashi, mushohada va mulohaza qilishi zarur. Bu tafakkurning vazifasi bo'lib, tafakkur obyektiv borliqning fikrda, mushohada va aqlda uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. U oliv

miyaning eng yuqori mahsuli bo‘lib, idrokdan farqli o‘laroq, narsalarning chuqur mohiyati va mazmunini aks ettiradi. An’anaviy xonandalikda buni uch bosqichda ko‘rish mumkin: Xonanda dastlab ko‘rish, eshitish, ovoz apparati va ichki tuyg‘u bilan his qilish va boshqa sezgilari orqali asarni bir butun holda (she’ri, g‘azali, uslubi, xarakteri, asosiy matni, tonligi, va h.k.) anglaydi va har xil mayda jihatlarini aniqlashga intilmaydi. Ikkinci bosqichda o‘z ijrochilik fikrini amalga oshirish uchun turli ijro uslublarini qo‘llagan holda ovozning sadolanishi, so‘zlar talaffuzi, og‘iz artikulyatsiyasi, bo‘g‘inlar bo‘linishi, metroritm, sur’at, agogika, dinamika va ashula jumlalariga aniqlik kiritadi. Qisqasi har bir asar bo‘lagi ustida qunt bilan alohida ishlaydi. Uchinchi bosqich ijodiy jarayonning murakkab pog‘onasi bo‘lib, bunda ijrochi ko‘rish, eshitib kuylash, sezgi harakat omillariga va ikkinchi bosqichda o‘z tajribasidan o‘tkazgan amaliyotiga tayangan holda asarni to‘liq va pishiq tahlil qilingan hamda umumlashgan shaklini bir butun holda tasavvur etadi. Tasavvur bilimning ibtidosi bo‘lib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil bo‘ladi va tafakkurdan farqli o‘laroq ijrochi hayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi bo‘lib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir. Tasavvurda inikos aks etib bosh miyaga axborot yetgandan keyin bosh miya orqali buyruq beriladi va vujud reflektorlarning turtkisi ya’ni to‘xtash va yo‘nalish harakatlari boshlanadi. Reflektorlarga javob tariqasida ijro harakatlari va boshqa signal tizimlari ishga tushadi.

Bunda xonanda tayyor bo‘lgan ashulani qanday talqinda kuylashi va uning obrazlarini hayolida tasavvur qiladi va ongida qanday shakllangan bo‘lsa shundayligicha tinglovchiga taqdim etadi.

Musiqani badiiy anglash va tushunib yetishda musiqiy tasavvur jarayoni asos sifatida xizmat qiladi. Tajribali tinglovchining tasavvurida faqat jaranglab turgan tovushlar yig‘indisi yoki ashulachi ovozigina eshitilib qolmasdan undan keyin keladigan ohanglar, g‘azal so‘zları, kuy harakati, lad o‘zgarishi, ma’lum ma’no beruvchi mavzu ham aks etadi.

Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri his-tuyg‘u va hayajon (emotsiya)dir. Kishi o‘zining hayotiy faoliyati

jarayonida atrofini o‘rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo‘ladi. Buning natijdasida shodu-xurramlik, qayg‘u va g‘am, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, jahl va g‘azab, hayratlanish, xafa bo‘lish kabi boshqa ko‘plab mayil va tuyg‘ular (obyektiv dunyoga subyektiv munosabat kechinmalari) insonning emotsiyal his-hayajon holatini ifodalaydi.

Emotsiya (tuyg‘u kechinmalarining shakli) ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi. Ijobiylari: shodu-xurramlik, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg‘u va g‘am, jahl va g‘azab, xafa bo‘lish kabi omillardan tashkil topadi.

Ijrochi-xonandaning ovozi va ijrochilik faoliyati his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ijodkor tomonidan yaratilgan maqom, mumtoz ashula va boshqa asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsiyal qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda xonanda asar kayfiyatiga mos, ovoziga, o‘ziga xos ravishda qizg‘inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda kuylaydi. Ashula hech qanday emotsiya va his-hayajonsiz aytilgan bo‘lsa tinglovchi yuragiga yetib bora olmaydi, uni befarq qoldiradi va ijordan, ashulachidan norozi bo‘ladi. Shuning uchun xonanda har bir asarning badiiy emotsiyal obrazlar mazmuniga chuqr kirib bora olishi, undagi qayg‘urish, zorlanish, quvonish, tantana, hazil va boshqa kayfiyat turlarini ishonchli yoritib bera olishi kerak.

Musiqiy ruhshunoslikda badiiy obraz uch omil asosida ochib-ifodalanib beriladi. Bularning birinchisi moddiy, ya’ni asosiy matn yoki nota matni, ashulachi ovozi tovushi, kuy, garmoniya, usul, dinamika, tembr, registr va h.k. Ikkinchisi ruhiy, ya’ni kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot. Uchinchisi mantiqiy, ya’ni shakl, janr, mazmun kabi omillardir.

Xonandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya’ni eng nozik va go‘zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his tuyg‘ular xonanda ijrochilik faoliyatida o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib ongli ravishda turli vosita va yo‘llardan foydalangan holda maqomlar va mumtoz asarlardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi.

Ashula ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini chuqur o‘rganish bo‘lg‘usi xonanda, o‘qituvchi, tarbiyachi uchun juda muhim shartlardan biridir.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. *Ashula ijrochilik jarayonining murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat ekanligini bilasizmi?*
2. *Unda har bir xonandaning qanday sezgi a’zolari qatnashadi?*
3. *Bu murakkab jarayonda xonandaning aql-idroki, ruhiy faoliyati ham ishtirok etadimi?*
4. *Emotsiya nima?*
5. *Badiiy obrazning uch omili nima?*
6. *Ashula ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini o‘rganish bo‘lg‘usi xonanda, o‘qituvchi, tarbiyachi uchun qanday ahamiyatga ega?*

### **3. XONANDA OVOZLARINING RUHIYATI**

Ovoz ruhiyati deganda biz uning tembri, yo‘g‘on yoki nozikligi, harakatchanligi yoki og‘irligi, jarangdorligi yoki tuntligi, kuchliligi yoki kuchsizligi hamda rang-barangligini ko‘zda tutamiz. Inson ovozi ruhiyati qanday bo‘lsa uning xarakteri ham shunday bo‘ladi. Ya’ni, inson ruhiyati ovoz ruhiyati bilan mos keladi. Masalan, inson ruhiy jihatdan og‘ir, bosiq, beg‘am bo‘lsa, bunday kishilar ovozlari pastroq va dramatik xarakterga ega bo‘ladi. Chaqqon, doim shoshilib yuradigan, jaxldor xonandalarning ovozlari esa yuqoriroq bo‘lib, lirik xarakterga ega bo‘ladi. Lekin ko‘rinishdan o‘zi og‘ir-bosiq bo‘la turib, ovozi lirik tenor xonandalarni ham uchratish mumkin. Yoki aksincha, sho‘x, shovqin-suronli xonandalarning ovozlari dramatik bariton yoki bas ovozli bo‘lishlari mumkin. Bu holat faqat o‘ndan bir qismini tashkil etadi.

Zamonaviy xonandalik pedagogikasi qadim tajribalarga, ichki hissiyotlarga ishonch, boy ijrochilik mahoratiga asoslangan bo‘lib, xonandalikdan dars bera olish o‘quvchini bu borada to‘g‘ri

yo'naltira olishni nafaqat ilm, balki san'at deyish to'g'ridir. Qadimda kuylashga o'rgatish san'ati sir saqlanib kelingan. Chunki mohir ijrochi bo'lish, tajribalar orttirish uchun xonandadan juda katta vaqt, kuch, bilim talab etilgan. Ammo hozirgi kunda tizim ancha o'zgargan. Lekin ustozning siri masalasiga keladigan bo'lsak, har bir ustoz o'z o'rgatish uslubiga ega.

Kimki xonandalikni o'rganmoqchi bo'lsa, albatta o'zining dastlabki ijodlaridanoq ovozining ruhiyati va qaysi turga mansub ekanligini aniqlab olmog'i lozimdir. Buning uchun ikkita ovoz bo'yicha mutaxassis o'qituvchi va bir shifokor ya'ni, otorinoloringolog kabi mutaxassislardan hay'at tuzilib, tekshirilmog'i shart. Bu hay'at a'zolari asosan bo'lajak xonandani uch xil iqtidoriga baho berishadi: birinchisi: eshitish qobiliyati; ikkinchisi: ovozning ko'lami yoki qaysi turga mansub ekanligini aniqlash; uchinchisi: ovoz apparati, nafas va eshitish tizimini kasalliklardan xoli, sog'lom ekanligini tekshirish. Dastlabki ikki tekshiruv natijasini ya'ni, eshitish qobiliyati va ovoz turini xonanda mutaxassislar aytib berishlari lozim. Ovoz apparati, nafas va eshitish a'zolari tashxisini esa, shifokor otorinoloringolog aniqlashi ko'zda tutiladi. Ovoz ruhiyatini, qaysi turga mansub ekanligini bir ko'rishda aniqlash qiyin albatta. Qayta tekshiruvlardan hamda shifokorning tashxisidan so'ng aniq bir xulosaga kelish mumkin.

Ma'lumki ovoz qanchalik yo'g'on bo'lsa, tovush hosil qilishda yutqin harakati shunchalik ko'payadi va ovoz paylarining baquvvatligi sezildi. Ovoz qanchalik baland bo'lsa aksincha ovoz paylari shunchalik ingichka va yutqin nozik bo'ladi.

Har bir xonanda o'z ovoz tessiturasini ya'ni, turini faoliyatining daslabki pog'onalaridanoq aniqlab olishi lozim. Aks holda tovush sifatini buzish kabi salbiy holatlarga olib keladi. Agar ovoz baland bo'lsa past pardalarni ijrosiga harakat qilish besamardir. Aytaylik ovoz past bo'lsa yuqori pardalarga chiraniq chiqish ovoz paylarini zo'riqtirish orqali oqibatda buzilishiga olib keladi. Hayotda bu kabi ovoz sifatini buzib qo'yish hollari haqida ko'plab misol keltirishimiz mumkin.

Ovozlarni turga ajratish har qanday bilimdon ustoz uchun ham qiyin kechadi. Masalan: bir o‘quvchini ovozini u yoki bu turga mansub ekanligini aytish uchun avvalo ovozning tembriga ya’ni, ovozning rangiga e’tibor beriladi. So‘ngra uning ko‘lamiga nisbatan ovozlar turlarga ajratiladi. Ba’zida shunday ovozlar uchraydiki, tembr jihatidan yo‘g‘on ya’ni, bariton bo‘lsa-da, ko‘lam jihatidan ovozining yuqori pardalari tenor kabi bo‘ladi, yoki ovozi mayin yumshoqligi tenorlar singari bo‘lsa ham ko‘lami kichikrok ya’ni, yuqori pardalarni ijro eta olmasligi mumkin.

Agar meditsina tomonidan olib qaraydigan bo‘lsak, erkaklarda ovoz paylari va rezonatorlari hajmi nisbatan kichik bo‘lsa, u albatta tenor yoki alt ovoz turidir. Qancha ovoz yo‘g‘onlashgan sari ovoz hosil qiluvchi a’zolarning hajmi shunchalik kengayib boradi. Lekin aytishlaricha taniqli xonanda Koruzoning ovoz paylarining hajmi baslarnikidek bo‘lsada uning ovozi lirik tenor ekanligini hech kim rad eta olmaydi.

Tajribali ustozlar ovoz kuchi va quyuqligi jihatidan bariton lekin ko‘lam jihatidan tenorga o‘xshagan ovozlarni turga ajratish uchun shu xonandaga yuqori pardalarda so‘z ayttirish orqali bilishadi. Shunda agar ovoz tenor bo‘lsa avjlardagi so‘zlarni aniq va qiyinchiliksiz talaffuz etishadi, aks holda bariton yoki bas ovozining og‘iz artikulyatsiyasi va nutqi past pardalardagi kabi bemalol emas, aksincha, ulgurmaydi hamda qiynaladi.

Bundan tashqari ularni turlarini aniqlashda tashqi ko‘rinish muhim ahamiyatga ega. Agar ozg‘in, harakatchan, salga jahli chiquvchi xarakterga ega bo‘lsa bu odam tenor bo‘ladi. Mobodo uzun bo‘yli, kam harakat, kam gap og‘ir va salobatli bo‘lsa, bilingki u albatta bas ovozli xonandadir.

Ba’zi ustozlarning ta’kidlashicha ««an’anaviy xonandalik» sohasida ovozlarni turlarga bo‘lib dars berish uslubi unchalik to‘g‘ri emas» deb ta’kidlashadi. Agar yuqori pardalarini ola-olmasa bu o‘quvchini o‘z holiga qo‘yib, ashulalarga ovozi yetmasa bir-ikki parda pastroqdan ham ijro etish mumkin deyishadi. «Bizda ovozlar tessitura larga bo‘linmagan, bundan keyin ham bu qoidalarga amal qilamiz. Bu kabi ovozlarni turlarga ajratish bizga yevropa akademik vokal san’atidan kirib kelgan», deb

uqtirishadi. Bu uslubning tarixiy kelib chiqishi ovoz tarbiyasi uchun muhim emas. Gap shundaki, har bir asarning o‘z pardasi, o‘z ko‘lamni mayjud. Xonanda ashulani meyoriga yetkazib ijro etish uchun asardagi joziba, shiddat avjlarning go‘zalligini ochib berish kabi xislatlarini ham qo‘sishi kerak. Bu asarlarni yaratgan bastakorlari aynan belgilangan parda uchungina bastalashgan bo‘lsachi? Bu pardalar masalasi hali uzoq yillar davomida babs munozaraga mushtoq jabhadir. Bizningcha hozirgi kunda ovoz borasida biz erishgan bilim va ko‘nikmalarni hammasi ham kerak, garchi bu san’at yevropadan kirib kelgan bo‘lsa ham! Qadimda ovozlar tessitura larga bo‘linmagan bo‘lsa biz ham shunday yo‘l tutishimiz kerakmi?

Ovozning to‘g‘ri tarbiyasi ustozlarning malakasiga ham bog‘liq. Iloji bo‘lsa har bir bo‘lajak xonanda o‘z ovoz turiga o‘xshash ovozli ustozdan ta’lim olgani ma’qul (tenor shogird tenor ovozli ustozdan, soprano ovozli shogird bo‘lsa soprano ovozli ustozdan va h.k). Shunday qilinsa bizning nazarimizda to‘g‘riroq bular edi. Lekin O‘zbekiston xalq artistlari Halima Nosirova, Saodat Qobulova, O‘zbekiston xalq hofizlari Fattoxxon Mamadaliev, Maxmudjon Tojiboev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Komila Bo‘rieva, Mashrab Ermatov kabi tajribali ustozlar aralash ovoz sohiblarini, hatto erkak hamda ayol ovozlarini ham bir xilda, oqilona tarbiyalaganlar va tarbiyalab kelmoqdalar. Shuning uchun konservatoriya yoki litseylarga o‘qishga kirgan bo‘lajak xonandalar tajribali ustoz saboqlaridan bahra olishga intiladilar.

Yosh xonanda o‘qituvchilarimizning ichida oqilona dars berib, yaxshi ko‘rsatgichlarga ega bo‘layotganlari ham bor. Lekin yosh xonandaning ovoz ko‘lamini aniqlamay turib, ovozni qiy Nash, ortiqcha zo‘riqtirish va oqibatda ovozi sinib ketayotgan xonandalarimiz ham topiladi. Bu albatta o‘qituvchini tajribasizligidan kelib chiqadigan nohush holatdir.

Bolalar ovozlari ya’ni, diskantlarni ovoz ko‘lamini e’tibor bilan tekshirmay turib, ovozni zo‘riqtirish yaramaydi. Ma’lumki, bolalar ovozlari yillar davomida ashula aytish natijasida borgan sari ko‘لامi kengayib, ovoz paylari mustahkamlanib boradi.

O'smirlik davriga kelib, bolalarda ovoz o'zgarishi kuzatiladi, buni mutatsiya ya'ni, rasidalik davri deb ataydilar. Bolalik davrida ovozini yo'lga qo'yib olgan xonandalar rasidalik davridan tajribali ustoz maslahatlari bilan silliq, qiyinchiliksiz o'tadilar. Shunday holatlar bo'ladiki bolalikdagi ovoz ko'lami yetuklik davrida ham o'zgarmaydi, ovoz to'lishishi va tembr o'zgarishini aytmaganda. Bu albatta bolalik ovozini yaxshi ishlov berilganligi va rasida davrining muvaffaqiyatli kechishi oqibatidir.

Bolalik ovozlarini yaxshi tarbiya toptirish uchun ovoz mashqlarini olib borish, qizdirish yo'llarini o'quvchiga yaxshilab o'rgatish lozim. Bu amallarsiz asar ijrosiga o'tmaslik kerakligini uqtirish kerak, hamda shifokor otorinoloringolog ko'rigidan muntazam o'tish kabi muhim masalalarни bajarish lozim. Iloji boricha har bir darsda shifokor ko'rigidagi sezilgan o'zgarishlarni belgilab borish zarur bo'ladi. Boladagi o'pkaning kengayishi ovoz paylarini rivojlanishi doimo nazorat ostida bo'lmog'i lozim. Undan tashqari ovoz ko'lами kengayishi asarlar haqidagi ma'lumotlarga tobora ega bo'lib borishi, asarlardagi sir-sinoatlarni o'rgana borishi va ustoz tomonidan kuzatilgan barcha o'zgarishlar yozib borilishi bo'lajak xonanda uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Ovoz ruhiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Lirik va dramatik ovoz tuslarini izohlab bering!
3. Xonandalar ovozini to'g'ri tarbiyasi uchun nimalarga e'tibor berishlari lozim?
4. Rasida ovozlarilari ilmiy tilda qanday nomlanadi?
5. Dars berish amaliyotida tajribasizlik oqibatlari qanday havf tuqdiradi?

**4. XONANDALIKKA O'QITISH UCHUN  
NOMZODLAR TANLASHNING O'ZIGA XOSLIGI**

Jahon umummusiqiy pedagogika tajribasida vokal—xonandalik san'atiga qiziquvchi nomzodlar qobiliyatini sinab

ko‘rishning turli yo‘llari mayjud bo‘lib, birinchi navbatda uning ovoz imkoniyatlari, musiqiy eshitishi, kuyni eslab qolishi va usul sezgisi aniqlanadi. Bunda nomzod cholg‘u asbobida chalingan tovushni ovozida takrorlay olmasa yoki qoniqarsiz aytса, buning sababi uning oldin qo‘shiq aytmagani yoki fortepianoni eshitib ko‘rmagani va tovush xususiyatini tushuna olmayotgani bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bolani o‘qituvchi yoki komissiya oldida tortinishi, o‘zini yo‘qotishi, ovozini xastaligi, hayajonlanishi natijasida o‘z qobiliyatini to‘la namoyon qila olmayotganligini ham hisobga olish kerak.

Iste’dodning dastlabki musiqiy qirralarini namoyon qilish uchun nomzodlar guruhlari bilan har xil sinovlar, musiqiy musobaqalar o‘tkazgan holda eng iqtidorlilari va qobiliyatllilarini tanlashga imkon yaratish zarur. Ushbu tanlovda ularga o‘zini erkin tutish, qo‘shiq aytish va raqs tushishdan tortinmaydigan muhit yaratilsagina bola o‘ziga tanish bo‘lgan qo‘shiqni bexato kuylashi, yoki she’rni yoddan ifodali o‘qishi mumkin va bu katta ahamiyatga ega. Shundan keyin o‘qituvchi tomonidan berilgan kuy yoki tanish qo‘shiqni boshqa pardada kuylatib uning ovozidagi parda tozaligi (intonatsiya), tovush oraliqlarining (intervallar, ayniqsa tertsiya, kvarta, kvinta va h.k.) tozaligi va ovoz ko‘lamini aniqlash mumkin. Garmonik eshitishini esa bir vaqtning o‘zida bir nechta tovushni (interval,akkord) chalib nechtaligini aniq aytgandan keyin, ularni alohida kuylatib ko‘rish zarur.

Musiqiy xotirasini sinash uchun bolaga ikki, to‘rt takt hajmidagi kuyni cholg‘u asbobida chalib berib, kuylash so‘raladi.

Nomzodning usulni sezish qobiliyatini tekshirganda unga tanish bo‘lgan usulni takrorlatiladi keyin esa sekin asta notanish va murakkabroq usullarni chaldirib sinab ko‘riladi. Ushbu jarayon muvaffaqiyatli yakunlangandan keyin bolaning tana tuzilishi va jismoniy rivojlanishini hisobga olgan holda o‘qishga tavsiya etish mumkin.

An’anaviy xonandalikni o‘rganmoqchi bo‘lgan nomzodlar jismonan barkamol, ovozi o‘tkir-keskin, dimog‘dan va xalqumdan kuylay oladigan, nafas yo‘llari, o‘pkalari toza va

sog‘lom, tish va jag‘lari, lab va chakka mushaklari, tana tuzilishi risoladagidek (normal) rivojlangan bo‘lishi juda muhim. Chunki xonandalikda boshqalariga qaraganda ko‘proq jismoniy kuch talab etiladi. Shuning uchun ham xonandalikka tanlanadigan nomzodlar 10–12 yoshga kirgan bo‘lishlari maqsadga muvofiq. Ammo keyingi yillarda mamlakatimizda 6–7 yoshli bolalarni «Bulbulcha», «Sevinch», «Boychechak» va boshqa jamoalarda boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tkazish orqali xonandalikka o‘qitish tajribasi qo‘llanilmoqda.

Shuningdek, o‘s米尔lar balog‘at yoshiga yetganida ovozida ro‘y beradigan rasida (mutatsiya) o‘zgarishi davrida ustozlar bu masalaga juda ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar. Bu fiziologik jarayonda o‘s米尔 ovozni zo‘riqtirmaslik, baland avj pardalarda kuylatmaslik, qisqasi shogird ovozini avaylashni ustozlar juda yaxshi bilishadi.

Eng asosiysi har bir nomzod an’anaviy xonandalikda o‘z xohishi bilan o‘qisa, uning barcha jihatlari shu sohaga mos kelsa, bunday mashg‘ulot ustozga ham, shogirdga ham birday zavq keltiradi va muvaffaqiyatlar garovi bo‘lishi muqarrar. Bunda nomzodga Olloh in‘om etgan iqtidorning ahamiyati katta.

Iqtidor – arabcha so‘z bo‘lib, qadr, qudrat (talantli, iste’dodli), kuch-quvvat degan ma’nolarni anglatadi.

Bu mavzuda gap boshlashdan oldin, quyidagi savol o‘z-o‘zidan shakllanadi. Ya‘ni, iqtidorni o‘lchash mumkinmi? Axir u o‘ziga xos, ajabtovur va o‘lchovsizku?

Buni qarangki, iqtidorni o‘lchab bo‘lar ekan. Bu masala xonanda va sozandalar tanlovlarda amalga oshiriladi. Tanlovlarda hay’at a‘zolari ijrochining iqtidorini maxsus «taroz»da o‘lchaydilar. Shunday bo‘lsa ham, iqtidorning aniq va umumiy bahosini berish qiyin. Haqiqatdan ham, birinchi, ikkinchi o‘rinlarga kim loyiq ekanligini aytish juda mushkul vazifa. Iqtidorni o‘lchash nafaqat tanlovlarda balki oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga kirishda, yillik sinov imtixonlarida, diplom olishda, teatr yoki ansabmllarga ishga joylashishda ham amalga oshiriladi. Minglab, millionlab odamlar, tomoshabinlar tomonidan tanqid qilinadi. Iqtidor nafaqat o‘lchanib baholanadi, balki u tarbiyalanadi.

Iqtidorni tarbiyalash uchun uning tarkibiy qismlarini, ularning o'zgaruvchanligini, rivojlanan olish hususiyatini bilish kerak. Nafaqat xonanda-yu, sozandalar, balki shoir, yozuvchi yoki boshqa san'at ahlining iqtidorini belgilash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, bu sinov qanday amalga oshiriladi?

Biz yuqorida maxsus «tarozi»da o'lhash kerak dedik, ya'ni, hay'at a'zolari yordamida. Ammo ular ham iqtidorga taxminiy baho qo'yadilar. Iqtidor oshsa 100% lik bahoni oladi, juda yuqori bo'lsa 110% lik bahoni olishi mumkin. Hay'at a'zolarining tarozi ko'rsatkichlari iqtidorga baribir to'liq baho bera olmaydi. Chunki ular 110% bergen iqtidor 200% lik bahoga loyiq bo'lishi ham mumkin, yoki aksincha.

Shunday qilib, iqtidor murakkab tushuncha, qolaversa uni o'lhash va tushunish uchun unga taxminiy yondashib, tarkibiy qismlarini o'rganish kerak. Demak xonandalarning iqtidori tarkibiy jihatdan qismlardan iborat.

Bu albatta, eng avvalo ovoz, uning tembri, go'zalligi, musiqiy didi, artistlik mahorati va asosiysi ko'rkarligi kabi muhim omillar ko'rib chiqiladi. Aynan mana shu tamoyillarga ko'ra tanlovlarda baho beriladi. Bundan tashqari, iqtidorning rivojlanishiga yoki yo'qolishiga ovoz sohibining umumiy psixofiziologik hususiyatlari, ya'ni xotira, ta'sirchanlik, temperament, hissiyotga boyligi va boshqa-boshqa hususiyatlari ta'sir etadi. Kuylash davomida ovoz musiqani kuzatadi va balandligini o'zgartiradi. Demak, ovoz qattiq va yumshoq bo'lishi mumkin, lekin balandlik bilan qiyoslanadi.

Ovozning kuchi, har bir odamning ovozi faqat o'zigagina xos sifatlar bilan ajralib turadi, ya'ni har bir ovozning tembri bu ovozga jilo beradi. Barcha mashxur va mohir xonandalar o'z ovoz tembriga ega bo'lishgan. Kuylash jarayonida ovoz so'zlaydi, gapiradi va nutqini yetkazib beradi. Bu nutqning tushunarli bo'lishi, eshituvchi uchun juda muhim. Nihoyat, xonanda ovozida tovushlar energiyasi ham bo'ladi. Ovozning bu hususiyati kam o'rganilgan bo'lsa-da ovoz yangrashida muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan, o'zbek an'anaviy xonandalik uslubida ovozdagi dard hissiyotdagi xastalik doimo muhim omillardan biridir.

Bundagi muhimlik shundan iboratki, mumtoz va zamonaviy shoirlarimiz she'riyatini olib qaraydigan bo'lsak, ulardagi mavzu qanday bo'lishidan qat'iy nazar, muammoli tomonlariga ko'proq urg'u berishadi. Aytaylik, muhabbat, sog'inch, nasihat yoki diniy ashulalarmi barchasi dardini o'sha mavzuning oqsayotgan tomonlarini o'z she'rida ko'rsatishga harakat qilishadi. Bundan kelib chiqadiki, bu she'rlarni ashula qilib aytayotgan xonanda ham she'rning ma'nosini o'z ovozida tasdiqlab, dardini ochib berishi kerak bo'ladi.

Ammo samimi ijro va soddalik nisbatan kamroq ifoda etilmogda. Demak, samimiylit yoki ijro davomida soxtalikdan holi bo'la olish ham iqtidor o'lchamlarining bir ko'rinishidir.

Iqtidorni o'lhash juda mushkul vazifa unga vaqtning o'zi odil hakam.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. *Nomzodlarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlashning qanday ilg'or yo'llari mayjud?*
2. *An'anaviy xonandalikka o'qitishda nomzodlar yoshining qanday ahamiyati bor?*
3. *An'anaviy xonandalikka o'qiydigan nomzodlarning jismoniy sog'iigi va rivojining qaysi tomonlariga ko'proq e'tibor qaratiladi?*
4. *Iqtidor nima va u qanday o'lchanadi?*

**5. O'QUVCHINING MUSIQA SAN'ATIGA VA  
AN'ANAVIY XONANDALIKKA BO'LGAN  
MUNOSABATINI TARBIYALASH**

Xonandalikka o'qish istagini bildirgan nomzodning to'g'ri tanlanganligiga muallimning ishonchi hosil bo'lishi uchun bolaning ovozi va musiqiy qobiliyati, jismoniy rivojlanishini va xonandalikka to'g'ri tavsiya qilinganligini takroran tekshirib, u bilan suhbatlar o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi shogirdining ashulachilikni tanlagani va unda o'qib ketishiga ko'zi yetgandan keyingina o'quvchini xonandalik yo'l-yo'riqlarini o'rgatishga kirishadi. Birinchi mashg'ulotlarni unga

yoqadigan milliy, yorqin qo'shiq va ashulalarni kuylab berish orqali o'quvchini qiziqtirish hamda xonandalik haqida qiziqarli hikoya qilib berish bilan boshlaydi. Agarda o'quvchi oldin boshlang'ich bosqichda o'qigan va ma'lum malakalarini egallagan bo'lsa bunda ish yanada oson kechadi.

O'qituvchining bosh vazifasi shogirdida mutaxassislik darsiga va xonandalikka nisbatan muxabbat uyg'otishdir. U o'quvchini qiziqtirish va ta'sir qilish orqali undagi ruhiy jarayonni (qabul qilish, diqqat, xotira qobiliyati, fikrlash va h.k.) faollashtiradi. Bunda muallimning mutaxassislik sinfida o'zi ijro qilib ko'rsatishi, kontsertlarda chiqishi, ochiq dars o'tishi, sinf kontsertlari berishi, mumtoz shoirlarning she'r-g'azal devonlari va nota adabiyotlarining rang-baranglaridan tanlab o'rgatishi, «muammoli dars» o'tishi kabi omillarning ahamiyati juda katta.

Darsda katta kurs talabalari ijrosini kichik kursdagilari ham kirib tinglashlari va buni teskarisini ham qo'llash katta samara beradi. Bunda talabada o'qituvchilik malakalari va ko'nikmalari shakllana boradi hamda pedagogik amaliyotning birinchi pog'onalarini his qiladi. Ayniqsa mashxur ijrochilar kuylagan turli formatdagi elektron yozuvlarni eshitish, kontsertlariga borib jonli ijrolarini ko'rib bahramand bo'lish, uchrashuvlarda o'zları bilan muloqotda bo'lish o'quvchi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi talabaga ijro dasturini (repertuar) tanlashda har bir shogirdining shaxsiy xususiyatlari, uning xohishi, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish yuritishi lozim. Ayniqsa milliy va mahalliy uslub xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qadimgi ustozona o'rgatish yo'llari va hozirgi zamon ilg'or pedagogik metododologiyasiga asoslangan turli uslublarni qo'llashi ishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

O'quvchining xonandalikka ko'nikish hosil qilishi murakkab jismoniy va ruhiy jarayon bo'lib, bunda har bir o'quvchiga mustaqil yondashish talab etiladi. Ta'limning dastlabki mashg'ulotlaridan boshlab shogirdga ovoz uning xususiyatlarini qiziqarli tarzda gapirib berish juda muhim. Ustoz o'quvchini qanchalik bu san'atga muvaffaqiyatli qiziqtira olishi, ovozini to'g'ri hosil qilishi va ijro holatida butun tana a'zolari, mushaklarni

erkin tutish va doimo ustoz nazorati ostida bo'lishi zarur. Bu davrda o'quvchilarda engil va bemalol kuylashga ruhiy ko'nikmalar hosil qilinadi. Bosh, gavda qo'l va oyoqlarni erkin tutish, o'tirib ijro qilganida tayanchni saqlash malakalari singdiriladi. O'quvchining jismoniy tuzilishi har xil rivojlanganligi natijasida ovozi, talaffuzi har bir bolada turlicha bo'lishi mumkin. An'anaviy xonandalik tajribasida bunday o'quvchilarga ustozning tavsiyasiga qarab turli maqomlar safidagi she'rlarni pardalari bilan turli mashqlar tanlanib, ijro qildirish tavsiya etiladi.

Ijrochilik nafasini to'g'ri yo'lga qo'yishda o'quvchi nafas olganda o'pkaning pastki qismlari to'lishini sezishi uchun oldin uni stolga yotqizgan holda tabiiy nafas oldirish va diafragma ishini tushuntirish, so'ngra ikkala qo'l barmoqlarini (ko'rsatkich, o'rta, nomsiz, jimjiloq) qorin va bosh barmoqlarni biqiniga qo'yan holda nafas olish va asta sekin ovoz hosil qilish mashqlarini bajartirish maqsadga muvofiq. Bunda shogirdning o'pka qopchalarini pastdan to'lishi, diafragma mushaklari kengayishi va qisqarishini o'z tanasi va barmoqlari orqali sezadi, ko'radi va kelgusida shunga amal qiladi.

Xususan o'quvchiga audio, video yozuvlar va ulardan qanday foydalinish, mashhur xonandalar ijrolarini yig'ish va muntazam tinglab borish, shogird bilan ularning ijrolari to'g'risida mulohaza va muhokamalar yuritish ta'limda juda yaxshi samara berishi muqarrar.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Bolani qiziqtirish va ta'sir qilish orqali qanday natijalarga erishiladi?
2. Buning uchun muallim mutaxassislik sinfiga qanday yo'l tutishi kerak?
3. Dastur tanlashda o'qituvchi nimalarga e'tibor qaratmog'i lozim?
4. Xonandalik va umuman musiqa ijrosiga ko'nikish qanday jarayon?
5. O'quvchilarda engil va bemalol xonish qilishga ruhiy ko'nikmalar qaysi yo'l bilan hosil qilinadi?
6. O'tirib ijro etgan paytdagi holatni izohlang.

## **6. INSON OVOZINING IJRO VA IFODA IMKONIYATLARI, TOVUSH HOSIL QILISH JARAYONI, DINAMIK BELGILAR VA UMUMMUSIQIY IFODA VOSITALARI**

Ijrochilik uslubiyatida «Ijro va ifoda vositalari» degan tushuncha mavjud bo‘lib, ijro va ifoda bir-biri bilan chambar-chas bog‘liq bo‘lsa-da, ular ijod jarayonining turli tomonlarini aks ettiradi. Musiqiy ifoda vositalariga inson tovushi va uning akustik asoslari, parda tozaligi (intonatsiya), ovoz tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), o‘lchov, sur’at, agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

An’anaviy xonandalarning ijrochilik vositalari esa xonandaning ovoz apparati, tomoq paylari, yutqin, kekirdak, nafas, til, talaffuz, musiqiy eshitish vositalaridan tashkil topadi. Inson ovozi o‘zining tabiatи jihatidan havo bosimi, ya’ni nafas bilan ovoz apparati harakatga keltirilishi natijasida tovush hosil qilinadi. Tomoqdan ovoz hosil qilish uchun ovoz ijrochilik apparati, ya’ni ijrochilik vositalari zarur. Ana shu ijrochilik apparati bir-biri bilan mutanosib holda harakatlangandagina tovush hosil qilish mumkin. Buning uchun xonanda avvalo o‘pkasiga ijrochilik nafasini to‘ldirib oladi va nafas yordamida ovoz apparatini harakatga keltirishi natijasida ovoz, inson tovushi hosil bo‘ladi.

Ma’lumki, asab tizimidagi shartli reflekslarga ko‘ra ovoz chiqarish uchun ishlab turadigan ichki a’zolarning barchasi bosh asab tizimiga bo‘ysunadi. Shu tarzda kuylash murakkab psixofiziologik jarayon hisoblanadi. Har bir xonanda ovoz chiqaruvchi a’zolarning ishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Doimiy ravishda o‘z hissiyotini tekshirib turishi, ya’ni, nimani, qanday va nima uchun qilayotganini tushunishi kerak. Insonning ovoz chiqaruvchi a’zosi uchta asosiy qismidan iborat: Bular bir-biri bilan o‘z vazifasi orqali bog‘liq bo‘lgan o‘pka, xiqqildoq va rezonator (tebrantiruvchi) bo‘shliqlardir.

Ovoz hosil bo‘lishi nafas chiqarish vaqtida ro‘y beradi. Ovoz hosil bo‘lishining sababi ovoz paylarini o‘pkadan chiqqan nafasning kuchli oqimi natijasida tebranishidan hosil bo‘ladi.

Tebranishda ovoz mushaklari ham ishtirok etib, mushaklar markaziy asab tizimi orqali keluvchi impulslar ta'sirida qisqaradi. Ovoz paylaridan hosil bo'lgan tovush asosiy tondan tashqari (tor va afg'on ruboblarining qo'shimcha jarang beradigan sim torlariga o'xshab) bir qancha obertonlarga ham ega. Ammo u oberton tovushlar biz eshitadigan tovushlarga hech ham o'xshamaydi va ovozning tabiiy jarangiga qo'shilib tovushning umumiyl tembrini boyitadi. Bu jarang—oberton tovushlar ovoz rezonatorlari tizimi orqali hosil bo'ladi. Rezonatorlar tizimini esa yutqin va og'iz bo'shlig'i tashkil qiladi.

Ovoz teshigining torayishi xalqasimon—cho'michsimon yon mushagining qisqarishi hisobiga ro'y beradi. Ovoz paylarining tarangligi eng avvalo xalqasimon—qalqonsimon mushaklar tomonidan boshqariladi.

Xonandalikdan dars berayotgan har bir o'qituvchi yoki xonandalik sirlarini o'rganayotgan har bir talaba ovoz hosil qilishda ishtirok etuvchi a'zolarning anatomiyasi, fiziologiyasini qanday va nima uchun xizmat qilishini yaxshi o'zlashtirib olmog'i lozim. Anatomiya odam tanasi a'zolarining ko'rinishi va tarkibini o'rgansa, fizioliyiya shu a'zolarning vazifasi, o'zaro, organizm va tashqi muhit bilan bog'liqligini o'rganadi.

Tovush o'zi nima? Tovush fizik hodisa bo'lib, tarang tortilgan jismning (sim, yassi plastinka va h.k.) tashqi ta'sir natijasida mexanik harakatga kelishi—tebranishi natijasida hosil bo'ladigan jarayondir. Tabiatda qulog'imiz ilg'aydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularning hammasini ham musiqiy tovush deb bo'lmaydi. Musiqiy tovush o'zining to'rt xossasi, ya'ni bir—biriga nisbatan baland pastligi, tusi (tembri), davomiyligi, ya'ni cho'zimi va kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi.

Tovush balandligi deganda inson qulog'i qabul qila oladigan tovushlar ko'zda tutiladi. Ularning eng pasti sekundiga 16 va balandi 4200 (chastota) tebranishli tovushlar bo'lib, undan pasti (infra tovush) va yuqorisi (ultra tovush), ya'ni, odam qulog'i ilg'amaydi va maxsus apparatlar yordamida eshitish mumkin.

Tovushni ifodali, go'zal qiluvchi omillar uchta bo'lib, shulardan biri intonatsiya (lotincha—baland, yuqori). Uning

tozaligiga erishish uchun avvalo xonanda ovozi sifatlari mashqlar jarayonida ishlangan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari ovozning toza chiqishi ijrochining mahorati va kayfiyatiga ham bog‘liq.

Eshitish va ovoz apparati o‘rtasida ham juda muhim bog‘liqlik bor. Musiqachi uchun musiqiy ma’lumot bilan birga eshitishning nozik rivojlanishi juda zarur. Kar-soqov odamlarning gapira olmasligining sababi, ular tug‘ma kar bo‘lganlari uchun atrofdagi odamlarning nutqini eshita olmaganlar va ularga taqlid qila olmaslik bilan birga kekirdakdan chiqadigan tovushlar haqida tasavvurga ham ega emaslar. Agar bola erta yoshlarida ya’ni, gapira oladigan yoshda eshitish qobiliyatini yo‘qotsa vaqt o‘tgan sari ovoz va tovushlar haqidagi tasavvurlari esdan chiqa boshlaydi va uning gapira olish xususiyati ham yo‘qolib boradi. Bola eshitish a’zolarining ta’sirlanishi natijasida yuzaga keladigan xohish orqali bevosita taqlid qilish bilan gapireshni o‘rganadi. Kuylashni o‘rganish jarayoni ham huddi shunday. Bir nechta mashqlar orqali hosil qilmoqchi bo‘lgan birorta tovushni chiqarish imkoniyatiga erishadilar. Kuylashni bilgan odam yoki birorta qo‘sishiqni kuylayotgan odam hayolan o‘sha qo‘sishiqni eshitadi va o‘zining tasavvuridagi ma’lum tovushlarni chiqaradi. O‘sha tovushlarni kekirdak orqali chiqarishdan avval zudlikda katta tezlik va aniqlik bilan kekirdak shu tovushlarga xos holatni egallaydi.

Kuylash yuqori va markaziy asab tizimi bilan chambarchas bog‘langan ruhiy fiziologik holatdir. Ma’lumki, xonandalik, aktyorlik va notiqlik kasblarini o‘rganishda uni o‘rab olgan atrof-muhit katta ahamiyatga ega. Bo‘lajak xonanda birgina ustozdan emas, balki atrofdagilarni tinglashi natijasida ham uning tajribasi ortadi. Bundan tashqari boshqa xonandalar ijrosini tahlil qilish bilan birga o‘z ovoz chiqarish uslubini rivojlantiradi.

Bo‘lajak xonandalarga ovozni qanday to‘g‘ri chiqarish haqida qancha chiroyli so‘zlarni topib gapirsak ham, o‘sha xonandaning o‘z-o‘zini tinglab tahlil qilganiga yetmaydi. Aytmoqchimizki, har bir xonanda o‘z ovozini o‘zi shakllantiradi, ya’ni, o‘z ovozini qanday shakllantirishni o‘zini tinglash orqali tushunadi. Odatda xonanda ustozlar «o‘zingni eshitmayabsan» deb o‘z shogirdlariga

tanbeh berishadi. Bu degani shogird o‘z ovozini atrofdagilar kabi eshita olmayotgani tanqid qilinadi. Haqiqatdan ham, biz o‘zimizning ovozimizni atrofdagilar kabi eshita olmaymiz. Bizga o‘zimizning ovozimiz ko‘proq ichkaridagi eshitish a’zolarimiz ya’ni, bosh suyaklardagi qattiq to‘qimalar orqali yetib keladi. Bundan tashqari bizning asab tizimimiz o‘z ovozimiz tovushlaridan tashqari ko‘rish, mushaklar va tebranish hissiyoti hamda shunga o‘xhash boshqa turli sezgi a’zolaridan katta miqdordagi signallarni qabul qiladi. Bundan kelib chiqadiki, biz o‘z ovozimizni atrofdagi odamlarga nisbatan boshqacha qabul qilamiz. Hozirgi kunda elektron yozish va uzatish texnikalari rivojlanib borayotganligi sharofati bilan har bir xonanda o‘z ovozini yozib, uni eshitib, tanqidiy nuqtai nazardan baho berish imkoniga ega.

Bundan tashqari ushbu uskunalar yordamida xonanda badiiy ijroga ahamiyat bera boshlaydi. Ayniqsa ovoz yozish uskunalarini endigina xonandalik san’atiga kirib kelayotgan talabalar uchun juda muhimdir.

Ma’lumki inson o‘z ovozini eshitishi uchun faqatgina quloq yagona manbaa emas. Yuqorida ta’kidlaganimizdek xonandaning o‘z ovozi nafaqt quloq balki, bosh suyagining qattiq to‘qimalari orqali ham bosh miyaga yetib boradi. Shuning uchun ham xonandaning o‘z ovozi haqidagi tushunchasi o‘zicha ya’ni, o‘zi tushunganidek bo‘ladi.

Tovush tembri (tembr fransuzcha—tovush bo‘yog‘i, tusi, xarakteri) tovush sifatining muhim omillaridan bo‘lib, har bir inson ovozi va cholg‘u asbobi tovushiga xos xususiyat. Tembrni go‘yo kamalak ranglariga o‘xshatsa bo‘ladi. Kamalakning o‘n ikki xil rangidan qaysi biri bo‘lmasa uni turfa xil rangliligiga putur etadi. Xuddi shuningdek tovush tembri va chiroyining xilma—xil bo‘lishida oberton—garmonik (inson qulog‘i ilg‘amaydigan ichki ohangdosh) tovushlar tarkibi juda katta ahamiyatga ega. Ya’ni obertonlar tarkibidagi tovushlardan qaysi biri jaranglamasa tovush tembri—go‘zalligiga ham shuncha putur etadi.

Vibrato—to‘lqinlantirish, tovush sifatini boyituvchi omillardan bo‘lib, u tovushga o‘ziga xos joziba baxsh etadi va go‘yo uni

qizdirib jonlantiradi. Bunda tovushning bir parda zonasidagi chorak va nimchorak pardalarga ko'tarilish hamda pasayish harakatlari kuzatiladi. Vibratoni ya'ni ovozni to'lqinlanirishni jamoa bo'lib (xonandalar ansambllarida yoki hamnafaslikda) ijo qilishda o'ziga xos murakkab tomonlari bo'lib, bunda barcha xonandalarning birdek nola qo'llashlari juda qiyin. Shuning uchun jamoa ijrosida nolaga ehtiyotkorlik bilan yondashiladi.

Xonandalar ovozining to'lqinlanish paytida tabiiy va notabiiy qaltirash vujudga keladi. Odatda xonandalar ovozi cho'zilganda tekis bo'lmaydi, yurak urishi kabi goh kuchayib goh pasayib, turli ritm bo'laklarini tashkil etadi. Bu ketma-ketlik bir-birini to'ldirib, taraluvchi omil vibratsiya ya'ni, ovoz to'lqinlanishi deyiladi. Ovoz to'lqinlanishi xonanda ijrosi uchun juda muhimdir. U ovozdagi kamchiliklarni berkitib, go'yoki asar ijrosini jonlantiradi va go'zallashtiradi. Lekin ba'zi xonandalarda ovoz to'lqinlanishini o'ta sun'iylashtirib yoki ovozini eplay olmaganligidan qaltiratib hatto pardadan chiqib ketish hollariga yo'l qo'yadilar. *Asarlar ijrosini ovoz to'lqinlanishi qanchalik go'zallashtirsa, ovoz qaltirashi shunchalik xunuklashtiradi.* Akustik nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, qaltiroq ham ovoz to'lqinlanishi kabi ma'lum darajada kuchayib pasayuvchi bo'laklarini tashkil etgan holda havoga taraladi. Bu qaltiroqlar oralig'i ritmi hamda kuchli va kuchsiz urg'ularni bir xilda emasligi bilan xunuk eshitiladi. To'lqinlar sifati ham xonanda o'z xohish-istiklaridan kelib chiqqan holda bo'ladi. Qaltiroq esa xonanda ovozini boshqara olmaganligidan vujudga keladi.

Ovoz to'lqinlanishi yuqorida aytganimizdek asar ijrosiga benihoyat go'zallik baxsh etadi. Bu to'lqinlanish qanchalik ravon bo'lsa shunchalik eshituvchini qalbiga chuqurroq kirib boradi. Bir soniyada olti marta to'lqinlanirish eng chiroyli ovoz to'lqinlanishi hisoblanadi. Bu holat bir soniyada to'rt marta bo'lsa ham ijro nisbatan buziladi. Ovoz to'lqinlanishisiz ijro zerikarli va sust bo'ladi. Ovoz qaltiroqligi esa ijroni butunicha xunuklashtiradi va eshituvchini ranjitadi.

Ba'zida xonandalar ovozini boshqara olmagani yoki o'z tabiiy holidek yangramaganligidan «ovozim yurmayapti» degan gaplarni

aytishadi. Buning sababi xonanda ovozining xastaligi, asab buzilishi yoki ovoz mashqlarisiz ashula boshlaganidan bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda ovozni noritmik to'lqinlanishi yoki qaltirashi, ovoz paylarini shakli o'zgarishi kuzatiladi.

Eshituvchi qulog'i kuchli va kuchsiz to'lqinlarni bir xil tekkislikda yangrashini eshitadi. Favqulotda baland va past notekis taraluvchi to'lqinlarni inson qulog'i tez ilg'ab olib, taqsimlashga ulgurmaydi, bu holat eshitish a'zolarini va miyani tezda charchatib qo'yadi. Oddiy til bilan aytganda ovoz qaltirashini xonanda o'zi nazorat qila olishi kerak.

Ovoz kuchi esa tebranish, harakatinig kengligi va kuchiga bog'liq. Ya'ni tovush hosil qiluvchi membrananing tebranish miqiyosi—amplitudasi qancha keng va kuchli bo'lsa tovush ham shuncha kuchayadi.

Inson ovozi dinamik imkoniyatlarga juda boy bo'lib, qadim—qadimlardan xonanda va hofizlar hech qanday ovoz kuchaytirgich va mikrofonlarsiz ochiq havoda, bayramlarda, katta davralarda, to'y va sayillarda o'z ovoz kuchi hamda nafasini tinglovchilarga manzur qilib kelganlar. Bular qatoriga bozorlarda jar chaqiruvchi jarchilar, azon aytuvchi muazzinlar, zikr—jahr tushuvchi qalandarlarni ham kiritish mumkin. Shuningdek, masjid va madrasalarda qiroat va tavjid qilganda ovozni ma'lum darajada kuchini oshiruvchi gumbazli honaqohlar va mehroblar fizik—akustik qonunlar asosida qurilgan. Bunday omillar inson ovozi dinamik imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Inson ovozidagi dinamik o'zgarishlarni uch asosiy guruhga taqsimlash mumkin:

- a) turg'un, ya'ni o'zgarmaydigan;
- b) asta-sekin o'zgaruvchan, pog'onama-pog'ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud: kuchsizdan (pastdan): *pp-p-mp-mf-f-ff* kuchliga va aksincha kuchlidan *ff-f-mf-mp-p-pp* susayib boruvchi;
- c) qarama-qarshi, tafovutli *p-f*, *pp-ff* va unga aloqador urg'ular tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatida asar mohiyatini ochishda xizmat qiladi.

Umummusiqiy ifoda vositalari usul (ritm), o'lchov, sur'at, agogika, artikulyatsiya, kuy, motiv, fraza, jumla, davriya, kulminatsiya, avj va boshqalardan tashkil topadi. Bularni to'liq ravishda Musiqa nazariyasi, Musiqa shaklining tahlili va garmoniya fanlari o'rghanadi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. Inson ovozining ijro va ifoda vositalari deganda nimani tushunasiz?
2. Inson ovozining hosil bo'lishi qay tarzda amalga oshadi?
3. Musiqiy va shovqinli tovushlarning bir-biridan farqi qanday?
4. Tovush tembri, intonatsiya va nola deganda nimani tushunasiz?
5. Xonanda ovozlarning dinamik imkoniyatlarini aytib bering.
6. Umummusiqiy ifoda vositalari deganda nimani tushunasiz?

## **7. OVOZ APPARATINING ANATOMIK VA FIZIOLOGIK TUZILISHI, KEKIRDAK, TOMOQ VA YUTQINNING VAZIFASI**

Insonning ovoz chiqarish apparati juda murakkab bo'lib, qadimgi olimlar uni (fe'liy nag'ma) tabiiy tovush, qolgan barcha tovushlarni (sun'iy nag'ma) ya'ni, inson ovoziga taqlid qiluvchi tovushlar qatoriga kiritishgan. Chindan ham barcha cholg'ularda bittadan jarang beruvchi—tebrantiruvchi (rezonator) bo'lsa inson ovozida ikkita bosh va ko'krak rezonatorlari mavjud. Bundan tashqari ovoz chiqarish va tovush hosil qilishga hamda uni boyitishga keng imkon yaratuvchi anatomik va fiziologik inson ichki a'zolari borki, shulardan biri, kekirdak bo'lib, uni ovoz hosil qilinishidagi holati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari kekirdakni boshqarish orqali xonanda tovushni to'g'ri yangrata oladi. Tovushni to'g'ri yo'naltirish ovoz qo'yishning eng muhim va nozik omillaridan biri sanaladi. Bu borada mohirlikka erishmoq uchun ovoz chiqaruvchi a'zo va eshitish qobiliyati o'rtasidagi nozik va aniq bog'liqlik zarur bo'ladi. Misol uchun xonanda «do» tovushini olmoqchi bo'lsa,

kekirdak shu tovushni chiqarishga mos holatda bo‘lishi lozim. Shu vaqtida eshitish qobiliyati darhol ishga tushib, tovush to‘g‘ri olinganligini tekshiradi. Agar noto‘g‘ri olingan bo‘lsa kekirdak darhol holatini o‘zgartirib kerakli holatga o‘tadi. Ovoz teshigining nafas olish va chiqarish holatidan tovush hosil qilish holatiga o‘tish tezligi, ovoz paylarining yaqinlashish kuchi va darajasi ovozning hosil bo‘lishiga juda katta ta’sir o‘tkazadi.

Kekirdak IV, V va VI umurtqa suyaklari sathida joylashgan. Shu bilan birga bo‘yinning oldi tomonida, til osti suyagiga birikkan holda terida bo‘rtib turadi. Uning orqasida yutqin joylashgan. Kekirdak bilan yutqin orasida bevosita teshik mavjud. Kekirdakning ikkala yonidan bo‘yining katta tomirlari o‘tadi. Oldida til osti suyagining mushaklari, bo‘yin pardasi va qalqonsimon bezning yuqori qismlari joylashgan. Kekirdakning pastki qismi traxeyaga ulanib ketadi.

Odam kekirdagini damli va torli cholg‘ularni o‘zida mujassamlashtirgan ajoyib musiqiy asbobga qiyoslash mumkin. Kekirdak orqali chiqariladigan havo tarang tortilgan torga o‘xshash ovoz paylarini tebratadi, natijada tovush hosil bo‘ladi. Musiqiy cholg‘ulardan farqli ravishda bu yerda havo aylanuvchi bo‘shliq mavjud bo‘lib, unda joylashgan «tor»ning taranglik darjasini o‘zgarib turadi va bu bo‘shliqning kattaligi va shakli kekirdakning asab tizimi bilan boshqariluvchi yutqin, til va og‘iz bo‘shlig‘i mushaklarining qisqarishi orqali amalga oshiriladi.


Kekirdak musiqiy cholg‘u bilan birga, harakatlanuvchi apparatga ham qiyoslanadi. Kekirdak skeleti tog‘aylardan iborat bo‘lib, ular boylam, bo‘g‘in va mushaklar orqali birlashgan. Bular orqali tog‘aylar siljib, kekirdak harakatga keladi. Harakat natijasida ovoz teshigining kattaligi va ovoz paylarining taranglik darjasini o‘zgaradi.

Ovoz paylarining tuzilishi kekirdak tog‘aylarining tuzilishi va joylashishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Xalqasimon tog‘ay, xalqa shaklida bo‘lib, orqa qismi keng plastinkadan, old va yon tomonlari ravoqdan iborat. Plastinkaning chekkalari va yon tomonlariga qalqonsimon va cho‘michsimon tog‘aylar bilan birlashtiruvchi boylamlar birikadi

qalqonsimon tog‘ay, kekirdak tog‘aylari ichida eng yirigi bo‘lib, old tomonda burchak hosil qilib birikkan ikkita plastinkadan iborat. Bolalar va ayollarda bu birikkan qismi bir oz botiq bo‘ladi, erkaklarda esa o‘tkirroq burchak hosil qiladi.

Kekirdak bo‘shlig‘i shakl jihatdan qumsoatga o‘xshaydi. Ya’ni, kengaygan qismi o‘rtada torayib yana pastga kengayib ketadi. Yuqori kengaygan qismi kekirdakning kirish qismi deyiladi. Bu qismning old devorini kekirdakning dorsal devori, orqa devorini cho‘michsimon tog‘ayning yuqori qismi, yon tomonini juft membranalar tashkil qiladi. Kekirdakning o‘rtा toraygan qismi ancha murakkab tuzilishga ega bo‘lib, uni ovoz apparati (glottis) deyish mumkin. Bu apparat kekirdakning yuqori va pastki qismlaridan ikkita alohida joylashgan buklamlar orqali ajralib turadi. Yuqoridagi juft buklamning (plica vestibularis) qirg‘oqlari kirish teshigini (rima vestibulis) chegaralab turadi. Pastki buklam, ovoz buklami (plica vocalis) deyilib, yuqoridagi buklamga qaraganda bo‘rtiqroq bo‘ladi va tarkibida chin ovoz boylamasi (ligamentum vocale) va ovoz mushagi (m.vocalis) bo‘ladi. Bu mushakning uzunligi, qalinligi va elastikligi ovoz balandligi, tembri va registriga ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori va pastki buklamlar o‘rtasi kekirdak qorinchasi (ventriculus laryngis) deb nomlanadi. Pastki buklamlar o‘rtasida sagittal (yonlama, yonmachasi) joylashgan ovoz teshigi hosil bo‘ladi. Bu teshik kekirdak bo‘shligining eng tor qismi hisoblanadi. Bu teshik old katta va orqa kichikroq qismlarga bo‘linadi. Orqa qismi cho‘michsimon tog‘ayning ovoz o‘sintalari orasida joylashagan bo‘lib, tog‘aylararo bo‘shliq deyiladi.



Eng qizig'i chin ovoz boylami ostida parallel ravishda yolg'on ovoz boylami ham joylashgan. Bu yolg'on ovoz boylamida ham alohida mushaklar bor. Kekirdakning pastki kengaygan qismi pastga yo'nalgan sari torayib boradi va traxeyaga ulanib ketadi.

Kekirdakning tashqi mushaklari uning harakatlanishini ta'minlaydi. Ya'ni, kekirdakning yuqoriga, pastga harakati aynan mana shu mushaklar yordamida amalga oshiriladi. Kekirdak bo'shilig'ida joylashgan mushaklar kekirdak tog'aylarini harakatga keltiradi va ovoz teshigining shakli o'zgarishiga, ovoz paylarining tarangligiga ta'sir etadi. Ikkala ovoz paylarining o'rtasida havo o'tishi uchun hosil bo'lgan oraliq ovozi teshigi deyiladi. Chunki ovoz hosil qilinayotganda bu oraliq teshik shakliga kiradi. Har bir xonanda yilda bir yoki ikki marta otorinolaringolog nazoratidan o'tib turishi lozim. Bu bilan u

o‘zida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasalliklarning oldini olgan va ovozi salomatligini asragan bo‘ladi. Shu o‘rinda tibbiy tekshiruvlardan biri laringoskopiya haqida kerakli ma’lumotga ega bo‘lishlari ham muhim.

Laringoskopiya—bu tirik odamni shifokorlar oynachasi orqali kekirdakni ko‘rib, tekshirish uslubidir. Bu tekshiruv orqali ovoz teshigining shakli, undagi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. **Fonatsiya**, ya’ni, ovoz hosil bo‘lishi vaqtida membranalar oralig‘i qismi torayadi va kichik uchburchak shaklida ko‘rinadi. Tinch nafas olish holatida esa bu teshik bir oz kengayadi va yana uchburchak shaklida ko‘rinadi. Kekirdakning shilliq qavati silliq va bir tekisda pushti rangda bo‘ladi. Ovoz paylari ham pushti rangda ko‘rinadi. Kekirdakning ovoz paylaridan yuqorida joylashgan shilliq qavati juda sezgir bo‘ladi, ya’ni, bu yerga begona jism tushib qolsa darhol kuchli yo‘tal reaksiyasi kuzatiladi.

Normal holatdagi kekirdakning laringoskopiya vaqtidagi ko‘rinishi. Birinchi planda ovoz paylarini bir oz yopib turgan, kiraverishdagi buklamlar ko‘rinib turibdi.

Kuylash jarayonida kekirdakning holati qanday bo‘lishi kerak? Bu borada ham qarashlar va nuqtai nazarlar mavjud.



Kekirdakning harakati borasida shunday tasavvur mavjud: Baland pardalar kuylanganda kekirdak ko‘tariladi, past tonlarda esa quylashadi. Agar ahamiyat beradigan bo‘lsak tovush har safar bir tonga balandlashganda kekirdak bir chiziq balandga ko‘tariladi, tovush yarim ton balandlashganda yarim chiziqqa

ko'tariladi. Aksincha tovush pasayganda esa bunchalik aniq bo'imasada, pastga tushishi ko'rindi. Bundan tashqari xonandaning irodasiga ko'ra baland tonli tovushlarni kekirdakning holatini o'zgartirmay turib ham olish mumkin. Ammo shuni ta'kidlash joizki, kekirdakni harakatlantirmay turib baland tovushlarni ijro etish natijasida tabiiylik yo'qoladi va bu tomoqdan kuylash deyiladi. Tomoqdan kuylovchi xonandalar tabiiylikka qarshi chiqib kekirdakni zo'rlaydilar va shundoq ham nozik bo'lgan ovoz a'zosini ishdan chiqaradilar.

Odatda kekirdak, xonandaning dars jarayonida yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, u o'z qonunlariga asoslangan holda harakatlanadi. Kuylamaydigan odamlarning kekirdagi xonandalik darsini olgan xonandalarga qaraganda harakatchanroq bo'ladi.

Tovush hosil qilishdan oldin kekirdak ma'lum bir holatni egallaydi. Egallah tezligi esa turlicha bo'ladi, ya'ni, bu tovushning qanchalik baland bo'lishi va tovush hujuming qattiqligi bilan bog'liq. Kekirdak dastlabki holatiga nisbatan tezroq harakatlanadi.

Kekirdakning harakati qisman bo'lsada xonandaning xohishiga ham bog'liq bo'ladi. Pianodan to'satdan fortega o'tadigan bo'lsa tajribali xonandaning kekirdagi bir harakat bilan oldinga va pastga tushadi.

Ba'zi xonandalarda xohish bo'lsa ham kekirdak umuman harakatlanmaydi. Shunga qaramay xonanda baland tovushlarni ham ijro eta oladi. Aytish joizki, ovoz ustalari baland tovushlarda kekirdakning kamroq va aksincha, past tovushlarda yaxshiroq harakatlanishiga erisha oladilar.

Bir registrdan ikkinchisiga o'tish vaqtidagi kekirdakning harakatini osonlik bilan sezish mumkin. Xonanda darslarni qanchalik yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa registrdan registrga o'tishda kekirdakning harakatlari shunchalik sezilarsiz bo'ladi.

Aytib o'tilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, kekirdakning to'g'ri harakati tovush balandlashganda kerakli balandlikka chiqishi va tovush pasayganda kerakli nuqtagacha tushishidir. Uning pastga tushgan holatini xonandaning xohishiga qarab ushlab turish mumkin. Kekirdak tabiiy

harakatlaridan cheklangan holda ham harakatlana oladi, ya’ni, tovush balandlashganda pastga, pasayganda yuqoriga ham harakatlanishi mumkin. Ovozini tabiiy go’zalligini, sog’lomligini va ovoz chiqaruvchi a’zosinining butunligini saqlab qolmoqchi bo’lgan xonanda kekirdakni ortiqcha zo’riqtirmasligi va majburlamasligi lozim.

Har qanday odamning ovozi o’zgaruvchan xususiyatga ega. Ovozi qanchalik yoqimli va musiqiy iqtidori baland, ijro didi yuksak darajada bo’lsa bu xonanda o’z ovoz imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Ovoz o’zgaruvchanligi odam qulog‘iga yoquvchi qimmatli va kamqimmatli, shuningdek, qulogqa yoqmaydigan ayniqsa tomoq va burun orqali chiquvchi ovozlarga bo‘linadi. Biz bu yerda Yevropalik ovoz ustalari nuqtai nazaridan aptyapmiz. Ammo turli xalqlarning o’z qarashi va didi mavjud. Odam ovozi qanchalik o’zgaruvchan bo’lmisin nafaqat xonanda balki odamning asosiy tembrini ifodalovchi bir nechta tovushlardan payqash mumkin. Odamlarning ko’rinishi turlicha bo’lganidek ularning ovoz tembri ham bir biriga o’xshamaydi. Bir ovozni qanday variantda eshitishimizdan qat’iy nazar unga xos bo’lgan ularning individual xususiyatlarini ifodalovchi tembrni aniqlash mumkin. Tobora ovozning tembriga ko’p sun’iy bo’yoqlar qo’shiladi. Ovozdagi asosiy pardalarga nisbatan keyingi qo’shilgan sun’iy pardalar ovozni ishslash orqali orttiriladi. Asosiy pardalar inson ovozi ko’lamining ikki yoki uch pardasini tashkil etadi. Bu ovozlar odam o’zi bilmagan holda doimiy ishlatib yuradigan pardalar ya’ni, gapirayotgandagi pardalardir. Bunday pardalar primar ton deyiladi.

Har bir ovozni diqqat bilan tahlil qilganda doim bir xil yangraydigan erkin tovushlarning takrorlanishini eshitamiz. Inson ovozi bir biriga juda o’xhashi mumkin, lekin ulardagi ba’zi omillari farq qiladi. Masalan, farzandining ovozini otasinikiga, ukaning ovozini akanikiga o’xshatadilar. Endigina xonandalikni o’rganayotgan o’quvchini olsak unda turli keraksiz mimik harakatlar, og’iz, til va bo’yinning majburiy holati kuzatiladi. Vaqt o’tgan sari bu keraksiz harakat yo’qoladi va ovoz yengil yangray boshlaydi. Ovozining sifatiga qarab bu o’quvchi bilan ishslash mumkinmi, milliy san’atimiz asarlarini

kerakli darajada ijro eta oladimi, ovoz yana rivojlanadimi, buni bilib olish mumkin.

Inson ovozida primar tonda gapi rayotgan vaqtida buni topish osonroq. Ya’ni gapi rayotgan vaqtida ovoz balandlashishi va pasayishidan qat’iy nazar doimiy tonga qaytadi. Ana shu ton primar ton hisoblanadi va uni yana «boshlang‘ich ton» deb ham ataydilar. Agar ovoz chiroyli, kuchli va to‘la bo‘lishini hamda bir butunlikda hech qiyinchiliklarsiz rivojlanishini istasangiz ana shu boshlang‘ich tondan kelib chiqqan holda ish olib borish zarur. Bundan tashqari primar ton bu nisbatan tabiiyроq bo‘lgan, chiroyliroq yangraydigan, ko‘krak va bosh rezonatorlari hosil qiladigan ideal tonga o‘xshash rezonator xususiyatlarga ega. Bunday ton barcha zararli odatlardan, ovozning hosil bo‘lishiga xalaqit beruvchi og‘iz, yutqin mushaklrining noto‘g‘ri qisqarishi, kekirdakning noto‘g‘ri harakati, noto‘g‘ri nafas harakatlaridan xoli, erkin tovush hosil qilishda yuzaga keladi. Ko‘krak, til ildizi va engak mushaklarining ishtiokisiz primar ton hosil qilinadi. Oddiy qilib aytganda primar ton deb eng oddiy, odatiy, yengil va tabiiy tovushga aytildi.

Uslubiy jihatdan primar ton ovozning kuchi va diapazoni oshishi bilan tavsiflanadi.

Ba’zan ikki yoki uch oktava ovoz ko‘lamiga ega bo‘lgan xonandalarni ham uchratamiz. Ularning turli tessitura larda ijro etgan ovozlariga e’tibor bersak haqiqiy, ya’ni, asl ovoz balandligi—tessitura sini aniqlash mumkin. Bu tessitura da xonandaning ovozi qiyinchiliklar va zo‘riqishlarsiz chiroyli yangraydi. Aynan o’sha tessituraning birinchi oktavasida xonandaning primar toni aniqlanadi.

Tajribali ustozlar har bir talabaning primar tonidan kelib chiqqan holda dars va mashg‘ulotlarni olib borishni tavsiya etadilar.

Gapirish va kuylash tonlari bir biriga mos kelmaydi. Bas, bariton va kontalto ovoz sohiblarining kuylash vaqtidagi ovozi gapirish vaqtidagiga yaqin bo‘ladi. Tenor va ayol ovozlarining kontraltodan tashqari deyarli barchasi esa oktavaga, ba’zida kvintaga farq qiladi.

Nota matnida sekundiga 256 tebranishli «*do*» notasi qayd etilsa, u holda shu notadan ikki oktava yuqori va ikki oktava past bo‘lgan oraliq odam ovozining chegarasidir. Kamdan—kam hollarda bu chegaradan chiqishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, soniyada 256 tebranishli *do* pardasidan bir parda past yoki bir parda yuqori bo‘lishi har bir xonandaning ovozida mayjud. Bu faltsetda va odatiy kuylashda ham shunday yangraydi. Tajribasiz xonandalar o‘sha pardalarga kelganda ularni olishda qiyinchiliklarni his qilishadi. O‘sha vaqtdagi xonandaning tashqi ko‘rinishiga ahamiyat bersak uning zo‘riqish holatida ekaniga amin bo‘lasiz. Go‘yoki o‘pkasiga ko‘proq havo olishga harakat qilayotgandek og‘zini katta ochadi. Bu vaqtida kuylayotganda bositgan tomoqli tovush chiqadi va kutilmaganda faltset bilan kuylaydi. Shu bilan birga bunday qiyinchilikka duch kelganda xonanda unli tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qila boshlaydi. Masalan *A* ni—*E* deb, *U* ni—*O* deb talaffuz qiladi.

Shuni ham aytish kerakki bu kabi o‘zgarishlar nafaqat kuylash vaqtida balki gapirish vaqtida ham yuzaga kelishi mumkin, masalan ovoz ohangi chegaradan chiqqanda.

Tasvirlangan holat asosan tajribasi bo‘lmagan xonandalarda uchraydi. Agar xonandaning tajribasi yetarli bo‘lsa u o‘zining ovozini boshqara oladi va to‘siquidan ovozini yopib o‘tib keta oladi.

Yopiq ovoz bilan kuylayotganda kekirdak pastga tushadi, til qoshiqsimon shaklga kiradi, yumshoq tanglay esa imkon qadar yuqoriga ko‘tariladi. Yopiq ovozda kuylayotganda kekirdakkacha bo‘lgan a’zo rostlanadi. Kekirdak ochiladi, ochiq ovozda kuylaganda esa aksincha kekirdak usti a’zo bilan yopilib qoladi. Cho‘michsimon tog‘ay yopiq ovozda tekislanadi, bu bilan imkon qadar ovoz paylarini tortadi.

Ochiq ovozda yolg‘on boylamlar chin boylamlarga yaqinlashadi. Yopiq ovozda esa uzoqlashadi.

Og‘iz teshigi yopiq ovozda qisqaradi. Yopiq ovoz xonanda uchun qanday ahamiyatga ega degan savolga shunday javob berish mumkin: Odam ovozi ikki asosiy rezonatorlardan iborat. Pastki, katta, ko‘krak kafasi va undan yuqori, kichik, bosh

rezonatorlari. Agar tovush balandlashsa ko'krak rezonatori ma'lum chegaragacha harakatlanishi mumkin, so'ngra bosh rezonatorlari ishga tushadi. Bu holda keskin o'zgarish seziladi, ammo bu o'zgarish xonandaning foydasiga bo'lmaydi. Ana shu keskinlikdan qochish uchun ham xonanda uchun yopik ovozdan foydalanish zarurdir. Buning uchun xonanda yutqinni juda katta ochish bilan sun'iy ya'ni, oraliq rezonatorni ishga soladi. Yutqin esa katta ko'krak va kichik bosh rezonatorlari orasidagi oraliq rezonator sanaladi.

Yopiq ovozning shakllanishida ovoz paylari ham ishtirok etadi, shu bilan birga nafas olish usullari ham o'zgaradi. Chunki ochiq ovozni xonanda 35 soniyagacha ushlab turishi mumkin, yopiq ovozni esa 20 soniya.

Ochiq ovozda birinchi oberton yaqqol ajraladi, yopiq ovozda esa asosiy ton kuchayadi. Yopiq ovoz nisbatan obertonlarga boy sanaladi va u yorqinroqdek tuyuladi.

Yopiq ovoz bilan kuylayotganda xonanda nimalarmi his qiladi? Bu vaqtida xonanda yuqori jag' oldingi tishlarining ildiziga tovush to'lqinlarining odatiy urilishini his qilmaydi va ovoz go'yoki odatdagidek og'iz bo'shilig'idan emas, balki yuz suyaklari orqali chiqib kelayotgandek bo'ladi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. *Inson ovozi, uning anatomik va fiziologik holati deganda nimani tushunasiz?*
2. *Kekirdak, yutqin, tomoq kabi ovoz apparatining yana qanday a'zolarini bilasiz?*
3. *Primar ton deb nimaga aytildi?*
4. *Ovoz apparatining charchashi, ish faoliyatini izdan chiqishi va qayta tiklash yo'llari haqida nimalarmi bilasiz?*

## **8. XONANDALIKDA SHTRIXLAR, TALAFFUZ VA ARTIKULYATSIYA**

Musika tovushiga o'ziga xos xarakter, bo'yoq berilishiga va mazkur tovushlarning o'zaro mutanosib qo'shilishiga shtrix deyiladi. Shtrix nemis tilidan—chiziqcha, chizgilar degan ma'noni

anglatadi. Dastlab vokal, ashula ijrochilarida, keyinchalik skripkachilarda asosan kamonni yurgizishda turli uslublar qo'llanila boshlagan. Damli cholg'ular ijrochilari ham ko'pchilik shtrixlarni skripkachi va ashulachilardan o'rganganlar. Ovoz shtrixlari asar ijro etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni biyron talaffuzda ijro qilingan asar barcha uchun tushunarli va zavqli bo'ladi.

Albatta ovozning va har bir cholg'uning o'ziga xos shtrixlari mavjud. Ya'ni torli cholg'ular hech qachon frullato yoki qo'sh staccato chala olmaydi. Shuningdek, damli cholg'ular ham spiccato (kamonchani sakratish) yoki col legno (kamon cho'pi bilan torga ishqalash) shtrixini chiqara olmaydi. Ovozda esa bularning barchasini nisbatan bajarsa bo'ladi.

An'anaviy xonandalik ijrochiligidagi og'iz artikulyatsiyasi va til ko'pchilik shtrixlarni amalga oshiruvchi inson a'zolardan hisoblanadi va uning bajaradigan vazifasi kekidak, rezonatorlar va nafas a'zolarinikidan kam emas. Til va og'iz bo'shlig'i ovozni tashqariga yo'llash bilan birga tovush hosil qilinishi paytida o'ziga xos rolini ham bajaradi.

Tovush so'ndirilishining ikki xili mavjud bo'lib; birinchisi ovoz apparatiga yuborilayotgan nafasni uzish orqali to'xtatilishi bilan amalga oshirilsa; ikkinchisi sadolanayotgan ovozni kekidak yordamida siqib to'xtatish orqali bajariladi. Bularning barchasi birgalikda «tovush hujumi» yoki «tovush atakasi»deyladi. Tovush hujumining uchta uslubi bor.

Qattiq xujum – bunda ovoz paylari shunday jipslashadiki, kekidak germetik to'siladi va chiqib kelayotgan havoga kuchli to'sqinlik qiladi. Ovoz paylari uning ostidagi havoning bosimidan kuchli zo'riqish holatida bo'ladi. Jipslashgan ovoz paylarini ajratish uchun esa havoning juda kuchli oqimi zarur. Bu vaqtida havoning bor kuchi tovush hosil qilish uchun sarflanadi. Xujumning bu turi yana «ovozi teshigi xujumi», «kekidak xujumi» ham deyligan. Bu kekidakning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zida bunday xujumdan so'ng ovoz paylarining o'ta jipslashishi kuzatilib, xurujsimon ko'rinishga kiradi.

Bu holat damli cholg'u ijrochiligidagi til zarbi va detashe shtrixiga o'xshaydi.

Yumshoq xujum – qattiq xujumdan farqli o'laroq tovushning bu xujumi tovush hosil qilishdan avval emas, balki tovush hosil bo'layotgan vaqtida yuzaga keladi. Bu xonandaning kundalik qo'llashi mumkin bo'lgan ko'rinish bo'lib, ovoz chiqaruvchi a'zoning uzoq saqlanishiga ko'mak beradi. Bu holat damli cholg'u ijrochiligidagi legato shtrixiga o'xshaydi.

Nafasli xujum – bunda tovush ovoz paylarining noto'liq jipslashishi vaqtida hosil qilinadi. Bunda ongli ravishda chiqarilayotgan nafasning tovush hosil bo'lishida ishtirok etmaydigan qismining chiqib ketishiga imkon beriladi. Bu ko'rinishda tovush hosil qilinayotganda har bir unli tovushning yonida «h» harfi eshitiladi. Bu holat damli cholg'u ijrochiligidagi tilning yumshoq zarbi va nonlegato shtrixiga o'xshaydi.

Ovoz paylari yuqoridagi jadvalda keltirilgan xujumlar vaqtida qanday holatda bo'lishini tasavvur qilish uchun «P», «V» va «F» harflarini talaffuz qilayotgandagi lablarning holatiga e'tibor qaratish lozim. «P» harfini talaffuz qilayotganda lablarning jipslashishi tovushning qattiq xujumi vaqtidagi ovoz paylarining jipslashishiga o'qshaydi. «V» harfini talaffuz qilayotganda esa tovushning yumshoq hujumi vaqtidagi, «F» harfida tovushning nafasli xujumi vaqtidagi ovoz paylarining jipslashishiga o'xshaydi.

Kuylash jarayonida ba'zi dramatik holatlarni ifodalash uchun qattiq hujum, yuqori pardalarda nafasli hujum, aralash registrlarda esa tovushning yumshoq hujumi uslubini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Endi shtrixlarni ovozda qo'llanilishini ko'rib chihamiz.

Shtrixlar hosil qilinishiga ko'ra besh guruhga bo'linadi.

Ularning birinchisi nafasning qattiq zarbi-hujumi kekirdakda to'xtatilishi yordamida quyidagi shtrixlarni ijro qilish mumkin.

Detache – fransuzcha detacer–alohida degan ma'noni bildiradi. Nafas zarblari–xujumlari ishtirokida har bir tovush yetarli darajada cho'zib alohida ijro qilinadi. U nota yozuvida maxsus belgilar bilan ifodalanmaydi.

Marcato – italyancha «marcare» - ajratib ko'rsatish, urg'u berish – nafasning keskin xujumlari ishtirokida kuch bilan urg'u berilgan tovushlardir. Bunda har bir tovush oxirigacha

cho‘ziladi va shunisi bilan sfortsandodan farq qiladi. Nota yozuvida ifodalanishi:

### Sarahbori Buzruk




Staccato – italyancha alohida, qisqa-qisqa degan ma’nolarni bildiradi, u nafasning keskin lekin tez va yengil uriladigan zarblari natijasida har bir tovush yarmigacha qishartirib aytildi. Bu shtrix asosan akademik vokal yo‘nalishidagi asarlarda ko‘p uchraydi. Ammo an’anaviy xonandalik sohasida bu shtrixdan ovoz sozlashda keng foydalaniladi. Nota yozuvida quyidagicha aks etadi:



Martele – fransuzcha «marteler» – cho‘kichlamoq, zARB urmoq, bunda tovushlar nafasning o’tkir zarbi va kuchli ovoz paylari ostidagi bosim bilan bir xil dinamikada, alohida bo‘rttirib ijro etiladi. Notada ifodalanishi:

### Nasrulloi



Tenuto – nafasning qattiq zarblari yordamida, ammo urg‘u bermasdan har bir tovush oxirigacha cho‘zib ijro qilinadi. Quyidagicha yoziladi:

## Mug‘ulchai Dugoh

Yo - ri bir - lan gash - ti ba'u lo - la - zor  
ey do'st - lar O

Non legato – nafasning yumshoq zarbi natijasida tovushlar bir–biriga bog‘lanmasdan kuyylanadi. Bunda har bir tovush orasida kichkina pauza hosil bo‘ladi. Bu shtrixni O‘zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov yaratgan «Oltinchi Suvoriy» yoki «Komiliy Suvoriy» misolida ko‘ramiz.

## Komiliy suvoriy

Navoiy g‘azali  
Ogahiy muxammasi


(Etmas)

K.Otaniyozov musiqasi

Fa-lak kim,yax - shi-lar baz - mi-da qad-  
rim - ni ba - land et - mas Da-mi yo‘q-kim  
yo - mon - lar muj - ma - yi -  
da mus - ta - mand et - mas.


Legato – birinchi tovushidan boshqa tovushlarida nafas hujumi ishlatilmaydigan shtrix, italyancha bog'liq degan ma'noni bildiradi. Bu shtrixda nafas birinchi hujum zARBini berib boshqalarida ishtirok etmaydi va tovushlar bir-biri bilan uzlusiz bog'lanib keladi. Nota yozuvida quyidagicha ifodalanadi:

### Talqini Dugoh taronasi



Glissando – kuyning sirpanchiq harakati, nota yozuvida to'g'ri yoki to'lqinsimon chiziq bilan ifodalanadi.

### Sarahbori Navo



Ba'zida artikulyatsiya va shtrix atamalari bir xil deb tushuniladi. Bu noto'g'ri albatta. Chunki shtrix ma'lum bir tovushni aniq shaklda (stakkato, legato) ifodalasa, artikulyatsiya barcha shtrix harakatlari orqali (ma'lum kuy jumlesi yoki frazasida) so'z talaffuzi, og'iz artikulyatsiyasi ishtirokida erishilgan natijalar yig'indisi bo'lib, muayyan shtrixlar asosida kuyning barcha ifoda vositalarining (temp, ritm, dinamika,

registr) mutanosib va muvofiq ravishdagi ishtirokini ta'minlashiga artikulyatsiya deyiladi.

Yuqoridagi asarlarda ko'rsatilgan artikulyatsiya shartlaridan bittasi bajarilmasa ham musiqaning xarakteri keskin o'zgaradi va tinglovchida yaxshi taassurot qoldirmaydi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. An'anaviy xonandalikka xos bo'lgan shtrixlar haqida nima bilasiz?
2. An'anaviy xonandalikda qanday nafas hujum-atakalari mavjud?
3. Artikulyatsiya nima?

## **9. OVOZ MELLIZMLARI VA IJRO USLUBLARI**

Ma'lumki har bir millatning o'z ovozi, ya'ni, ovoz mellizmlari—bezak, naqshlari mavjud. Bu mellizm har bir xalqda o'ziga xos bo'lib, o'sha xalqning ruhiyati, xarakteri, kelib chiqishi va ko'plab sifatlarini belgilab beruvchi omilga ovoz mellizmlari deyiladi. Misol tariqasida, boshqa irq xonandasini o'zbek tilida kuylamoqda. Uning na nutqidan, na musiqiy ohangidan boshqa irq vakili ekanligini sezmasligingiz mumkin, chunki o'sha xonanda o'z nutqi va ijro etayotgan asarining musiqasini chuqur o'rgangan, lekin uning ovoz shakllanishida va ohanglarida baribir boshqa millatiga mansub ekanligi yaqqol seziladi. Hozirgi kunda ko'plab xorijiy davlatlardagi musiqachilar yoki musiqaga qiziquvchilar milliy cholg'ularimizni kelib o'rganish bilan birga milliy ashulalarimizni, asarlarimizni ham aytishga urinmoqdalar. Bu albatta ular uchun og'ir kechsada o'rganishni oliy maqsad etganliklari uchun jadallik bilan o'zlashtirmoqdalar. Masalan: akademik vokal yo'naliishida Santes musiqa kollejida dars beruvchi Fransiyalik Silvan Roy hozirgi kunda tanbur, dutor, qo'shnay va rubob sozlarini chalish bilan birga milliy xonandalik asarlarini ham o'rganishga erishmoqda. U shu darajada o'zlashtirganki, uning nutqida yoki musiqiy yo'lda nuqsonlarni topa olmaysiz. U o'sha asarni magnit tasmalardan eshitib

o‘rgangan, hatto ovoz shakllantirishni ham asl holidek o‘zlashtirgan, o‘zidan qo‘sghan nolalari ham milliy xonandalik talablariga to‘la javob beradi. Uni ko‘rmay turib ijrosini eshitgan o‘zbek tinglovchisi, uning xorijlik, aynan yevropalik ekanini ashulaning daromadidanoq sezadi. Bu uning yevropa mellizmiga tug‘ma ravishda xosligidandir. Buni hech kim hech qachon o‘zgartira olmaydi. Hatto akademik vokal yo‘nalishida ovoz ruhiyati va ko‘lamlari bir xil bo‘lgan xonandalar ovozi bir biriga o‘xshab ketadi. Ular dunyo akademik xonandalari tessitturalari bilan bir xil asarni qonuniyatlariga amal qilgan holda ijro qilsalar ham ularning qaysi yurtdan ekanligi darhol seziladi. Lekin bir narsani faxrlanib, aytishimiz kerakki, bizni xonandalar o‘zga yurt asarlarini mohiyatan chuqur o‘rganishadiki o‘sha xorijiy o‘lka vakillari hayron qolishadi. Misol uchun Botir Zokirov «Arab tango»sini ijro etganida Arab xalqining o‘zi shinavanda bo‘lib qolgan. B.Zokirov fransuzcha asarlarni ijro etganida esa fransuzlar undan «bizni tilni juda yaxshi bilar ekansiz» deb xonanda bilan gaplashishga urinishgan ekan. Uzoqqa bormaylik 2007-yil Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan «Mug‘om ko‘rik tanlovi»da ishtirok etgan Yulduz Turdievani olaylik. Bu xonanda dastlab milliy musiqamizga oid Farg‘ona-Toshkent maqomlaridan «Dugoh Xusayniyi» tarkibiy qismlari bilan ijro qildi, keyin ko‘rik tanlov shartlaridagi Ozarbayjon xalqi mug‘omlaridan kuyladi va ko‘rik tanlovnинг birinchi o‘rin sovrindori bo‘ldi. Ozarbayjonlik hayat a’zolari juda maroq bilan tinglab, talaffuzi, ijro mahorati va hokazo jihatlariga qoyil qolishdi. Xonandaning aytishicha ularning asarlarini o‘rganishdan ko‘ra bizni mumtoz asarlarimizni yod olish qiyinroq kechibdi.

Bizni yurtimiz dunyoga o‘z iqtidorli yigit qizlari bilan mashxur. Bu yerga chetdan kelib bizga o‘rgatadigan talantlar kerak emas. Bizni yurtda iqtidorli ijodkorlar hamma davrda bo‘lgan va bundan keyin ham bunday bo‘lishiga ishonamiz.

Aytib o‘tganlarimiz dunyoviy mellizmlar hususida edi. Bundan tashqari bizning yurtimizda vohalarga mansub ovozlar mellizmlari va har xil maktab vakillari miliy ovoz san’atimizni rang—barang rivojlanishida ulkan hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Mutaxassislar va ziyrak tinglovchilar har bir xonandani qanday asar ijro etishidan qat'iy nazar qaysi mahalliy uslub hattoki, qaysi maktab vakili ekanligini tezda aniqlab olishadi. Har bir vohaning o‘ziga xos ovoz mellizmi va ohanglari mavjud. Misol uchun Buxorolik xonanda Orifxon Xotamov bastalagan bir asarni ijro etdi, uning sheva talaffuzi, yoki nola qochirimlari Buxorolik ekanini bildirmasa-da, ovozidagi mellizmlar buni oshkor etadi. Bu kabi misollarni ko‘plab ketirishimiz mumkin. Gap shundaki, sheva yoki maktab ijrochiligidan tashqari har bir vohaning o‘z mellizmi, o‘z ovozi, o‘z uni bo‘ladi. Bu mavzuni davom ettirishdan oldin har bir voha xonandalari ovozlariga ta’rif berib o‘tmoqchimiz: Bu ishni aslida so‘z ustasi, xalq orasidan yetishib chiqqan san’atkor Yusufjon qiziq Shakarjonov aytganidek: «O‘zbekiston san’atini bir daraxt desak, uning ildizi Xorazmda, tanasi Buxoro, Samarqandda, shoxlari vodiyya, Toshkentga kelib gullaydi va meva beradi». Bu so‘zlarni Yusufjon qiziq Shakarjonov aslida ustozlaridan eshitgan ekan. Biz ham ovoz mellizmlari haqidagi ta’rifimizni Qoraqalpog‘iston va Xorazmdan boshlasak. Qoraqalpoq millatiga mansub xonandalarni o‘zbek yoki an‘anaviy xonandalikka xos asar ijrolarini juda kamdan kam eshitamiz—u, lekin ularning akademik vokal yo‘nalishida ijod qilayotgan namoyondalari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ularning ovozi o‘ta hissiyotli, ta’sirchan, ammo buni doim ham oshkor etavermaydi. Shunga qaramay jozibali, o‘ynoqi xarakterga ham ega. Xorazm vohasi ovozlarini mellizmi haqida esa soatlab gapirishimiz mumkin. Bu yerdagi turli maktab vakillari o‘z mellizmlariga ega. Hozirgi kunda bu maktab davomchilarining shajarasi Qoraqalpog‘iston xududidagi Ellikqal’a, To‘rtko‘l, Shabboz, Beruniy kabi shahar va tumanlarida ijod etib kelmoqdalar. Bularni barchasini umumlashtirgan holda shunday deyishimiz mumkin: bu vohadagi ovoz mellizmlari o‘ta salobatlari (maqom ijrochiligidagi nola—qochirimlarning salobati ko‘zda tutiladi), hissiyotga boy, mag‘rur, ichidan yonib ketsa ham tashqarisiga sir boy bermaydigan, ta’sirchan, og‘ir, bosiq, vazmin, yuqori pardalarda esa o‘zining yorqin, jarangdor va ulug‘vorlik bilan tus olish

imkoniyatlariga ega. Sho‘x o‘ynoqi asarlarda esa o‘zining jozibadorligi, shiddatliligi va hushtakallufligi bilan ajralib turadi. Bu xonandalarning ijrolarini diqqat bilan tinglasangiz butun bir O‘zbek san’atini poydevoriga o‘xshaydi. Ildiz degani mana shu bo‘lsa kerak.

Buxorolik san’atkorlar ovozi salobat hamda vazminlikda Xorazmlik xonandalardan hech ham qolishmaydi. Ularning o‘ziga yarasha pastki pardalarda mung bilan birga jozibadorlik xususiyatlari sezilib turadi. Buxoronning Olot, Qorako‘l tumanlari xonandalari ovozlarida Turkman millatiga va Xorazm vohasiga mansub mellizmlari ham eshitiladi.

Samarqand maktablari esa Buxorodan farqli o‘laroq nolalar, qochirimilar ustuvorligi bilan ajralib turadi. Yuqori pardalarda ovozlarining to‘liqligi bilan farqlanadi.

Surxondaryo va Qashqadaryo vohalaridan bugungi kunda qadar ko‘plab iste’dodli xonandalar yetishib chiqqan. Ularning ovoz mellizmlari o‘ziga xos bo‘lib, har xil yo‘nalishlarda, turli vohalarga mansub asarlarni ijro etganlarida ham nafislik, ham chapanilik, ovozlardagi yorqinlik ularni shu vohaga mansub ekanini anglatib turadi.

Vodiy maktablari esa boshqa bir olam. Bu erdagisi dardli, mungli ohanglar hech bir vohada kuzatilmaydi. Bu erdagisi ovozlar hatto o‘zidan shikoyat qilayotgandek boy hissiyotga ega. Shuning uchun ularda «Fig‘on», «Giry», «Munojot» kabi asarlar mavjud. Hatto sho‘x-o‘ynoqi qo‘shiqlarni ham ular allaqanday g‘amginlik va o‘ziga xos mung bilan ijro etishadi. Chunki vodiy maktablarining ijrochilik borasidagi qarashlari shuni taqozo etadi.

Toshkentda ham ijrochilik maktablari juda ko‘p bo‘lib, ularni alohida maktablar sifatida e’tirof etmoq lozim. Qolaversa bu maktablar ovozidagi dardu—hasrat ularning ovoz mellizmlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Ammo baribir vodiy maktablaridagi mung Toshkent maktablarida muhim o‘rinda turmaydi.

Aytib o‘tilgan voha ovoz mellizmlarining barchasi nisbiy nuqtai nazarlarga tayangan holda aytib o‘tildi.

Bulardan tashqari milliy xonandalik san’atida nola—

qochirimlar yoki boshqacha aytganda bezaklar mavjud. Nola va qochirimlar har bir uslub vakillari hamda vohalarga mansubdir. Bu masalaga tarixiy yondashish uchun faqatgina ilk magnit tasmalariga yozib olingen yozuvlarga va hozirgi vaqtida eshitish mumkin bo‘lgan manbalarga tayanamiz. O‘zbek xonandalarining ilk yozuvlari grammoplastinkalardir. Ulardagi xonandalar Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Levi Boboxonov, Domla Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, Hojihon Boltayev, Nurmuhammad Boltaev, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov va hokazo. Bu xonandalarning ijrosidagi nola va qochirimlar o‘ziga xos sodda bo‘lib, ba’zilari hozirgi davr eshituvchisida ham qiziqish uyg‘otadi. Milliy xonandalik san’ati va ulardagagi ijro asosan ustoz xonandalar ijrolariga tayanadi. Hozirgi kundagi ko‘pchilik xonandalarning ijrolari nola—qochirimlari va bezaklari tahsinga loyiq. Ba’zilari borki, boshidan to oxirigacha nola qilaverib, asarni bezab tashlaydi, milliy musiqamizning asosiy negizi ikkinchi darajali bo‘lib qoladi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. *Mellizm atamasini qanday tushunasiz?*
2. *Bizni millatimizga xos mellizmlar qanday sifatlarga ega?*
3. *Ijro maktablari deganda nimani tushunasiz?*
4. *Farg‘ona-Toshkent mellizmlari boshqa vohalardan nimasi bilan farq qiladi?*

## **10. ASARLARDAGI NOLA VA QOCHIRIMLAR NISBATI**

Nola va qochirimlar har bir xonandaning o‘z yuragi ya’ni, dardi, faqat uning o‘zigagina xos bo‘lgan xonandalik san’ati haqidagi tushunchasi va dunyoqarashiga bog‘liq. Aslida nola va qochirimlar asarning bir yoki ikki joylarida qo‘shib ketilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshidan oxirigacha asarni nola va qochirimlar bilan bezash eshituvchining me’dasiga tegishi,

asarning mohiyatan o‘zgarishi va musiqiy matnning buzilishiga olib keladi. Yuqorida aytib o‘tilgan ustozlar asarlarning ijrosi davomida me’yorini bilgan holda o‘ziga xos bezaklar ijob qilib ketganlar. Ustozlarimizning aytishicha, ovozni o‘ynatish nola—qochirimlarni mislsiz go‘zal ijob etishga ustozlarning ham iqtidori yetgan, ammo ular musiqiy yo‘lning to‘la-to‘kis eshituvchiga yetkazib berish uchun me’yor darajasini bilganlar. Nola va qochirimlarning ko‘pligi asarni bezamaydi, aksincha musiqiy negiz yoki asosni zaiflashtiradi. Chunki milliy musiqamizdagi har bir asar ijrosi o‘ziga xos yondashuv va bezaklarni talab etadi. Shunday asarlar borki ular yetuk xonandalarimiz tomonidan ijob qilinaverib, xalqimiz qulog‘iga o‘rnashib qolgan, bu ashulalarni ijob etish davomida nola—qochirimlar qilishda juda ehtiyoj bo‘lish kerak. Ortiqcha bezaklar asar mohiyatini buzishi va eshituvchilar bunga e’tiroz bildirish oqibatlariga olib keladi.

Bizni musiqamizni dunyoga tanitgan ham asarlarimizdagi chuqur falsafa va salobatdir. Musiqiy tuzilish jihatidan murakkablik, yorqinlik, jozibadorlik va hakozo sifatlar dunyo musiqalarida o‘z o‘rnini topgan. Bizning musiqalarimizga xos xislatlar esa boshqa xalqlar asarlarida uchramaydi. Bu jihatlarni ham biz mellizm deb ataymiz.

Rasida davrida o‘smirlar ovoz mellizmlari bo‘lmish nola va qochirimlar ishlatishni bu yoshlarida nisbatan kerakli joylarida qo‘llay olmaydilar. Shuning uchun ularga vaqtinchalik ustozlarining o‘zları ijob qilib, taqlid qildirish orqali ko‘rsatishlari mumkin. Ba’zida ko‘rsatilgan nola va qochirimlarni bolalar ayta olmasliklari mumkin, shunda bezaklarni dastlab soddalashtirish orqali o‘rgatmoq to‘g‘ri bo‘ladi.

Shuni ta’kidlashimiz joizki: ovozning tuni, tembri, harakatchanligi, bundan tashqari asarning xususiyatlari, ijrochini qobiliyatiga qarab nola—qochirimlarni ishlatish taqozo etiladi. Ovoz bezaklarini me’yorida ishlatilsa, asar salobatini ketqizmasdan ijob etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mellizmlar har-xil ovozlarda turlicha yangraydi. Masalan ovoz tuslari bor, tussiz yoki tund ovozlarda nola va qochirimlar nisbatan ko‘proq ishlatilsa, jarangdor ovozlarga esa ularning hissiyotliligini

inobatga olgan holda nisbatan kamroq ishlatilsa ham bo‘ladi. Bu yerda asar salobatining saqlanish me’yorlari ko‘zda tutilishi lozim. Ovozlari harakatchan (nola va qochirimlarga moyil) xonandalar esa o‘zlarini asar bezaklaridan nisbatan tiyishsa yaxshiroq bo‘ladi. Chunki bunday ovozlar (xonandalar) o‘ta hissiyotli bo‘lib, nola-qochirimlar qilaverib, eshituvchini me’dasiga tegishi, ba’zida asabini buzishi ham mumkin. Bu bezaklarsiz asarning milliyligi, boy musiqiy go‘zalligi, falsafasi, ijro etayotgan xonandaning qobiliyati va boshqa xususiyatlari bilinmaydi. Buning ustiga boshqa millat vakili O‘zbek asarlarini ijro etayotgandek tuyuladi.

***Takrolash uchun savollar:***

1. *Nola va qochirimlar asarni bezaydimi yoki buzadimi?*
2. *Meyyor atamasini qanday tushunasiz?*
3. *Salobatli asarlar deganda nimani tushunasiz?*
4. *Bolalik davridagi xonandalik ovozları qanday nomlanadi?*
5. *Tund va tussiz ovozlar xonandalik san’atidagi mavqeyi haqida gapirib bering!*

## **11. XONANDALARNING IJROCHILIK NAFASI**

Inson organizmida nafas asosiy o‘rin tutadi va o‘pkaga olingan kislород iste’mol qilingan har xil uglevodlar, yog‘ va oqsillarning parchalanishida muhim rol o‘ynaydi. Nafas olingan paytda havo burun teshiklaridan changlardan tozalangan va biroz qizigan holda o‘pkaga o‘tadi. O‘pkalar odam ko‘krak qafasida joylashgan ikkita elastik qopchalar bo‘lib, o‘pka to‘qimasi ko‘krak qafasini deyarli egallaydi.

O‘pkalar bir yarim milliardga yaqin alveolalardan tashkil topgan. Alveolalar juda kichkina pufakchalar shaklida bo‘lib, organizmga kerakli kislород, ular orqali to‘qimalarga, karbonat angidrid gazi esa to‘qimalardan alveolalarga o‘tadi. Shu tariqa gaz almashinuvni jarayoni ro‘y beradi. Alveolalar bo‘sning‘i borgan sari kengayib boruvchi mayda kanallar—bronxeola, bronxlar bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu kanallar esa bronxlar tizimini tashkil etadi.

O'pkalarga nafas olinib to'lganda ko'krak qafasi kengayadi va qorin diafragmasi ko'tariladi. Nafas chiqarilganda esa aksincha holat yuz beradi. Inson o'pkasi hajmining nafas sig'imi 3500–4500 ml. bo'lib, jismoniy mashqlar va suzish bilan muntazam shug'ullanish natijasida uning havo sig'imi hajmini 6000 ml.ga yetkazish mumkin.

Inson tinch turgan paytda bir minutda 18–20 marta nafas olib chiqaradi. Bu oddiy nafas hisoblanadi. Ijrochilik nafasi bilan oddiy nafas bir–biridan farq qiladi. Oddiy nafas burundan erkin olinadi, uning olinish va chiqarilish vaqtłari bir –biriga tengdir.

Ijrochilik nafasi ongli ravishda burundan olinishi kerak. Juda kam hollarda og'iz burchaklari orqali olinadi va olinishida tez, chiqarilishida esa tejamkorlik bilan sekin asta sarflanadi.

Ijrochilik nafasini og'iz orqali olgan paytda u til, og'iz va tish chekkalariga tegib o'tsa yoki tomoqni qisgan holda olinsa shovqinli xissillagan tovush hosil bo'ladi va u barchaga xalaqit beradi. Bunday kamchilikdan juda ehtiyyot bo'lish zarur.

Ijrochilik nafasida o'pkaning to'liq hajmidan foydalaniladi. Asosan uning uch turi mavjud bo'lib, bular:

a) ko'krak nafasi, bunda o'pkaning yuqori qismi havoga to'lishi natijasida ko'krak qafaslari kengayadi, qorin bo'shlig'i (diafragma) esa passiv holatda bo'ladi;

b) qorin nafasi, bunda o'pkaning pastki qismi havoga to'lishi natijasida qorin bo'shlig'i (diafragma) ko'tariladi. Ko'krak qafaslari esa passiv holatda qoladi;


d) aralash nafasda o'pkaning butun hajmi havo bilan to'ladi, bunda olingen nafas o'pkaning pastki qismidan to'lishib, qorin (diafragma) ko'tariladi va yuqori qismi ham to'lishi natijasida ko'krak qafasi kengayadi. Bu ko'krak va qorin nafaslarining aralashgan turi bo'lib, ijrochilikda eng ko'p qo'llaniladigan samarali nafas hisoblanadi.

Diafragmani nasosga va o'pkalarni nafas xalqumiga havoni haydovchi temirchining meshqopiga o'xshatish mumkin. O'pkaning pastki qismi kengroq bo'lib, unga ko'proq havo sig'adi.

Nafas olish paytida o'pkalarning bosimi ostida diafragma pastga tushadi. Ya'ni qisqaradi va tekislanaadi. Nafas chiqarishda esa diafragma sekin ko'tariladi, lekin bo'shashmaydi.

Ijrochilik nafasining qaysi shakli bo'lishidan qat'iy nazar xonanda uni olgan, ya'ni o'pkasini havoga to'ldirgan paytda yelkalar ko'tarilmasligi zarur. Shuningdek, nafasni sarflash jarayonida o'pkada zahira nafas qolishi kerak. Chunki u o'pkani qaytadan havoga to'ldirishda katta ahamiyatga ega.

Quyidagi rasmda nafas apparatining holati ko'rsatilgan.



1. Ko'krak qafasi, 2. O'pka, 3. Diafragma.

Nafas chiqarishdagi holat asosiy chiziqlar bilan, nafas olishdagi holat esa uzilgan chiziqlar bilan belgilangan.

Musiqiy asarlarda nafas olinishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmasligi joylar mavjud bo'lib, ularga rioya qilinsa kuy jumlesi, davriyasi va umuman musiqa matni badiiy ifodali chiqadi va uzilishlarga yo'l qo'yilmaydi. Kuy matnida nafas olinishi mumkin bo'lgan joylar quyidagilar hisoblanadi:

1. Tinish belgilari (pauzalar)da;
  2. Cho‘zimli tovushlardan keyin;
  3. Bir xil ritmik ko‘rinishdagi joylarning takrorlanishida;
  4. Aniq ifodalangan so‘z jumlalari oxirida;
  5. Garmonik va dinamik tuslarni o‘zgarishi paytida;
  6. Asar registrlarining almashinish joylarida;
- Asar davomida nafas olish mumkin bo‘lmagan joylarga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:
1. So‘zlarning o‘rtasida;
  2. O‘tkinchi tovushlardan oldin yoki keyin;
  3. Yordamchi tovushdan oldin;
  4. Yetakchi tonlarda va cho‘zimli tovushlardan oldin nafas olish tavsija etilmaydi.

Nafas olishning imkonini bo‘lmagan so‘z jumlalarida, qiyin bo‘laklarida ijrochi qanday yo‘l tutishi kerak? Bunda xonanda kuy jumlalari yakunida qulay joyida ustoz maslahatiga tayanib nafas olishi mumkin. Buni «Ushshoq» ashulasining boshlanish qismi misolida ko‘rib chihamiz:

Qaro ko‘zim kel ey mardum V

Qaro ko‘zum kel ey mardumlug‘ emdi V fan qilg‘il,V

Ko‘zim qarosiga mardum V kibi vatan V qilg‘il.V

Yuzing guliga ko‘ngul V ravzasin yasa V gulshan,V

Qading V niholiga jon gulshanin V chaman qilg‘il.V O-voey.

Deb ijo qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ijrochilik nafasini rivojlantirish uchun toza havoda jismoniy mashqlar, ta’lim jarayonida cho‘zimli sekin sur’atdagi asarlar, har xil dinamik tusdagi tovushlarni zamzama qilish, maqom va mumtoz ashulalarning vazmin sur’atdagi qismlarini qunt hamda chidam bilan ijro qilish zarur.

#### ***Takrorlash uchun savollar:***

1. Inson organizmida o‘pka va unga olinadigan nafas qanday rol o‘ynaydi?
2. Xonandalikda oddiy nafas bilan ijrochilik nafasini farqi bormi?
3. Ijrochilik nafasini qaysi turlarini bilasiz?

4. *Ashula matnining qanday joylarida nafas olish mumkin va qaysi joylarida tavsiya etilmasligini tushuntirib bering.*
5. *Ijrochilik nafasini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?*

## 12. OVOZ TAYANCHI

Ovoz hosil qilish uchun nafas bilan birgalikda xonanda ovoz tayanchini ham his qilmog'i lozim. Ruslarda «pevcheskaya opora» deyiladi, italyanlar esa «appoggiare la voce» ya'ni, ovozni tayanirish deb atashadi. Rostmana kuylash san'ati tayanmog'i yoki suyanmog'i lozim. Aynan shu ovoz tayanchi, ovoz tembri, kuchi va yengilligini hosil qilishda madad bo'ladi. Bulardan tashqari xonandani charchatib qo'ymaslikni ta'minlaydi.

Ovoz tayanchini har bir xonanda o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib, turlicha tushunadi. Tabiiyki, bu qarashlar juda keng miqiyosda bo'lishi mumkin. Ba'zi mutaxassislar bu tushunchani nafas olish a'zolari bilan bog'laydi, ba'zilari esa alohida kekirdak deb tushunadi. Yana boshqa mutaxassislar ovoz tayanchi deb diafragmani aytishadi. Yana birlari tishlarni ya'ni, ulardan hosil bo'ladigan talaffuzga tayanadilar.

«Ovoz ijrosida asosiy tayanch vazifasini bajaruvchi omil bo'lib, til va sheva xususiyatlari maydonga chiqadi»<sup>5</sup>.

Yana ba'zi bir xonandalar ovoz tayanchini inson tanasida emas, balki uni qamrab turgan atrof muhitda deb biladilar. Ya'ni, akustik sharoitlarga bog'liq bo'lgan tayanchga ishora qiladilar. Bu turli fikr va mulohazalardan ovozni nimaga va qanday tayanirish kerakligini anglash qiyin. V.A.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litseyi o'qituvchisi V.V.Shashkovning fikricha: «Adabiyotlarda hali shu kungacha ham ovoz tayanchi haqida aniq bir tushunchalar berilmagan. Faqat bu ovoz tayanchini har bir xonanda shaxsiy hissiyoti orqali sezmog'i lozim»<sup>6</sup>.

---

<sup>5</sup> «Shashmaqom saboqlari» (maqola va ma'ruzalar to'plami) O'.Rasulovning maqolasi. Toshkent. 2005. 101-bet.).

<sup>6</sup> «Maqolalar to'plami». V.V.Shashkova maqolasi. «Istoriya razvitiya pevcheskogo dixaniya», Respublika musiqa kolleji o'qituvchilari. Toshkent. 2005. 79–80-betlar).

F.I.Shalyapin «Vospominaniya» maqolalar to‘plamida shunday yozadi: «Uning ustozi tenor ovoz sohibi D.A.Usatov, shogirdining ovozini eshitib, tovush susayganini sezsa uning ko‘ksiga urib «ovozingizni tayantiring!» deb baqirar ekan. Shalyapin shunda tovushni nafasga, ya’ni, asosiy ovoz nuqtasini nafasga tayantirish kerak ekanligini tushunib yetadi»<sup>7</sup>.

Bu borada barcha xonandalar bir—birlarini eshitgan vaqtlarida ovoz tayanchini sezadilar, ammo qanday sezish, shu tayanchning nuqtasi haqida aytib bera olmaydilar. Ovoz tayanchi borasida o‘quvchilar bilan atroflicha tajriba o‘tkazib ko‘rliganda, ular o‘rgangan ashulalarni tik turib, o‘tirib, yonboshlab, bir oyoqlab, suyanib aytib ko‘rib, o‘zлari his etgan holatlarini gapirib beradilar. Agarda ovoz hosil qilishda tayanch mustahkam bo‘lsa, unda ovozning shakllanishi aniq va ovozning ongli ravishda boshqaruvi mukammal bo‘ladi. Bundan tashqari ovozdagi obertonlar miqdori kengayadi. Ovoz tayanchsiz bo‘lsachi? Unda ovoz shakli, tarkibi, tembri, kuchi sustlashadi. Hatto yetuk xonandalar ijrosida tayanchsiz ovoz hosil qilishga undalganida ularning ijrosi huddi tajribasiz yoki bиринчи marta kuylayotgan havaskorning ovoziga o‘xshab qoladi. Ovoz tayanchi nafas chiqarish jarayonidagi alohida tashkilot vazifasini bajaruvchi omildir. Bu omilni hosil qilishda ko‘krak qafasi va qorin mushaklari—pressi taranglashadi. Eng asosiysi o‘pkalarning pastki qismi diafragmaga tayanadi. Bunda nafas orqali ovoz chiqarishda tomoq paylariga zo‘r bermaslik hamda nafas zahirasini ushlab turish tavsiya etiladi. Ovozning yuqori registrlarida chirinish va kuchanish kabi xunuk odatlardan ham xoli bo‘lish kerak.

Ma’lumki, qadimda xonandalar o‘tirgan holatda qo‘lidagi sozni chalib ashula ijro etganlar. Keyinchalik esa tikka turib aytish natijasida ovozni oyoqqa tayantirganlar.

Bu gap bilan o‘tirib soz chalib xonish qilinsa ovoz tayanchi sust bo‘ladi degani emas, balki har bir xonanda o‘z xohish

---

<sup>7</sup> F.I.Shalyapin. «Vospominaniya» maqolalar to‘plami. Moskva, 1958, 118-bet).

irodasiga ko‘ra ashula ijro etishlari mumkin. Asosiysi, yerga tayanuvchi inson tanasi, ya’ni, tursa oyoq, o‘tirsa tos suyagi shunday o‘rnashgan bo‘lishi kerakki, tana harakatlansa ham tayanch mustahkam bo‘lmog‘i lozim. O‘tirgan holatda nafas siqilmasligi uchun xonanda gavdasini tik tutmog‘i va shu bilan birga erkin bo‘lishi kerak. Tik turgan holatda xonish qilishning o‘ziga xos afzalliklari mavjud. Birinchidan, xonanda nafasi ravon, talaffuzi aniq va asosiysi tayanch nuqtasi ya’ni, oyoqlari mustahkam yerda o‘rnashib turadi. Ikkinchidan, ijro shiddati, jozibasi oshadi, ya’ni, sustlikdan xoli bo‘ladi. Uchinchidan, o‘tirgan eshituvchiga yuqorida taralgan ovozning ta’sir kuchi ortadi. To‘rtinchidan, xonanda ijrosidan zavqlangan tinglovchilarni yuqorida kuzatgan ashulachi ham ijro shiddatini yanada oshirishga urinadi.

Shunday qilib, ovozning tayanchi nafas, nafas esa o‘z navbatida diafragma, ko‘krak qafasi va qorin mushaklari hamda diafragmaga tayanadi. Misol uchun suvda suzib, oyog‘i muallaq turgan odam xonish qilish u yoqda tursin, gapirishga ham qiynaladi. Chunki uning tana tayanchi yo‘qligi bunga sabab bo‘ladi. Tana tayanchisiz mushaklar tayanchi, mushaklar tayanchisiz nafas tayanchi, nafas tayanchisiz esa ovoz tayanchi bo‘lmaydi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Ovoz tayanchi nima?
2. Ijrochi xonanda sahnada o‘zini qanday tutishi kerak?
3. Tajribali va tajribasiz xonandalarning tayanchi qanday bo‘ladi?
4. Suvda oyog‘i yerga tegmay muallaq turgan xonandalar ovozi qanday sadolanadi?
5. Tayanchni his etgan xonandalar talaffuzi qanday?

### **13. MUSIQIY ESHITISH QOBILIYATI, XOTIRA VA USUL SEZGISI**

Ijrochilik jarayonida xonandaning ovoz apparati, nafas organlari, tili, talaffuzi va mimikasi bilan chambarchas bog‘liq

holda uning musiqiy eshitish tasavvuri ham faol ishtirok etadi. Musiqiy eshitish xonanda umumiy qobiliyatining yetakchi omillaridan biridir.

Musiqiy asar, ashula mazmunini ijrochi go'zal ovoz orqali talqin qiladi va tinglovchi tomonidan eshitiladi, qabul qilinadi. Bu jarayonda asosiy vazifani eshitish, tinglash va tasavvur hal qiladi. Demak musiqiy eshitish va tasavvursiz san'atga, musiqaga, xususan ijrochilikka oshno bo'lish aslo mumkin emas. Chunki ashula va musiqani hamma eshitadi, ammo uni barcha ham tinglab idrok eta olmaydi.

Kasb nuqtai nazaridan musiqiy eshitish ham ikki turga bo'linadi: Birinchisi rivojlanuvchi yoki qiyosiy eshitish qobiliyati sozandaga bir tovushni eshitgandan so'ng boshqalari bilan taqqoslagan—qiyoslagan holda balandligini aniqlashda yordam beradi. Ikkinchisi mutlaq (absolyut) eshitish qobiliyati bor xonanda esa tovush balandligini to'g'ridan-to'g'ri boshqalari bilan taqqoslamasdan aniq ayta oladi. Ya'ni tovush hosil bo'lmasdan oldin, (notani ko'rsa yoki unig balandligi nomini eshitgan zahoti) mutlaq eshitish qobiliyatli xonandaning tasavvurida uning balandligi aniq jaranglaydi va ijrochilik ovoz apparatini o'sha tovushni hosil qilish uchun tayyorlaydi.

Ijrochilik tajribasida musiqiy eshitishning boshqa jihatlari ham mavjud bo'lib, ular:

a) tovush (tembri) tuslarini anglash, bunda tovushning tembrini ya'ni tovush rangini, (koloritini) erkak yoki ayol ovozi, ma'lum cholg'u asbobining tovushi va h.k. eshitish ko'zda tutiladi;

b) ritmik eshitish, bunda usul sezgisi orqali musiqiy harakatni payqash, ya'ni ovozlar bilan uning cho'zimlarini mutanosib holda zarb va usullarini his qilish;

d) tovush balandligini tinglash;

e) tovushqator va lad asoslarini aniqlash (garmonik yoki melodik va h.k.);

f) nyuans—dinamik o'zgarishlarni his qilish va h.k.

Bundan tashqari insonda zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) eshitish xususiyatlari ham mavjud bo'lib, zohiriy (tashqi)

eshitish orqali yakkaxon sozanda, xonanda, ansambl yoki orkestr tomonidan ijo qilingan asarni barcha jihatlari: balandligi, tembri, usuli va musiqiy matnini anglab oladi. Ma'lumki bunday ustozona uslub sharq xalqlarida juda keng tarqalgan bo'lib, qadimdan otadan bolaga, ustozdan-shogirdga ayniqsa musiqiy meros namunalari og'zaki, ya'ni eshitish-tinglash orqali amalgamoshirilgan va bizgacha yetib kelgan. Xonandani tarbiyalashda esa doimo o'zini eshitish orqali nazorat qilib borish, bunda tovush sifati, intonatsiya, dinamik belgilar va boshqa jihatlariga e'tibor qaratish muhim omillardan biridir.

Botiniy (ichki) eshitishda insonning ichki tuyg'usi, ya'ni oldin eshitilgan, qulog'iga tanish bo'lgan hayolidagi asar ko'zda tutiladi. Bu hissiyat beshta jihatda namoyon bo'ladi:

- a) oldin kimningdir ijrosida eshitilgan va xotiraga o'rnatshib qolgan musiqiy obrazlar, ashulalar;
- b) o'zi qachonlardir ijo qilgan asar, namudlar, avjlar yoki kuy qismini xotirlash;
- c) asarni she'ri yoki g'azalini ko'rganda, notadan cholg'u asbobisiz o'qiganda sadolanishini tasavvur qilish;
- d) xirgoyi qilib aytish yoki o'quvchiga tushuntirish uchun asar va uning qismlari kompozitsiyasini hayolda shakllantirish;
- f) ijo jarayonida birdaniga tayyorgarliksiz (eksprormt) badiha (improvizatsiya), namud (ko'rinish), avj, (gul partav) yoki yangi qismlar ijod qilish.

Botiniy va zohiriylar eshitish yillar o'tishi bilan bilim, tajriba, malaka oshgani sayin rivojlanib, sayqallanib boradi. Shuning uchun ham ta'limning birinchi qadamlaridan boshlab musiqiy eshitishni va eshitish nazoratini rivojlanтирish o'ta muhimdir.

Musiqiy xotira bu inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri yod olish va xotirada saqlash bo'lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o'sha xotiradagilarni ma'lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish—namoyon etish hisoblanadi.

Musiqiy xotira insonda ona allasi ohanglari orqali balki, ona qornidagi paytidanoq shakllanadi. Yengil, esda saqlanadigan,

qisqa jumlali, jozibador, yorqin kuy va qo'shiqlar yosh bolaning murg'ak xotirasida doimo muhrlanib qoladi va butun umri davomida unga yoshligini eslatib turadi.

Xonandaga kasbiy faoliyatida turli ashula va qo'shiqlarni, musiqiy tuzilma va shakllarni yod olish hamda esda saqlab qolish malakalari singdiriladi. Bunda kichkina qo'shiq jumlalaridan tortib to katta turkumli asarlarning she'r va g'azallarigacha yodda saqlash va ularni esdan chiqarmasdan ijro qilish musiqiy xotirani rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Xotiraning shunday turlari mayjud:

- a) tovush balandligi, kuchi, tembri, lad tizimi, usuli, ohangdoshligi, kuy, qo'shiq, ashula shaklini esda saqlash xotira turi;
- b) inson qiyofasi, tabiat manzarasi, buyum namunasi, biror obraz, nota yozuvi, ularning cho'zimi, turoqlanishi va she'riy yozuvning qog'ozdag'i ko'rinishi, sahnada, ekranda ifodalanishi ko'zda muhrlanadi va ko'rish xotirasiga kiradi;
- d) turli harakatlarni eslab qolish va uni qaytarish, (dirijerlik, raqs, pantomima va h.k.) tana sezgi organlari (ovoz apparati, tomoq, kekirdak, yutqin, nafas organlari, lab, qo'l va barmoqlar harakati va h.k.) cholg'u asbobini sezib eslab qolinishi sezgi—harakat xotirasi;
- e) esnash, kulish, yig'lash, lazzatlanish, ta'sirlanish, emotsiya tuyg'ularini esga olib o'zida aks ettirish his-hayajon xotirasi;
- f) hikoya, roman, she'r, g'azal, maqol, topishmoq va boshqalar so'z—mantiq xotirasi turlariga kiradi.

Xotirani yanada mustahkamlash uchun ustoz xonandalar tomonidan musiqiy asarni yod olishda quyidagicha yo'llutilishi uqtiriladi:

- a) asarni she'r, g'azal, nota matni ko'rib kuylab esda saqlashga harakat qilish;
- b) yod olgandan keyin eslab kuylash;
- d) ovoz chiqarib kuylamasdan nota va she'riga qarab ko'rish orqali ko'z xotirasida mustahkamlash;
- e) nota va she'rsiz kuylamasdan hayoldan o'tkazish orqali musiqiy xotira mustahkamlanadi.

Musiqiy xotira mustahkam bo‘lishi uchun nafaqat aqliy xotira (quvvaiy hofiza), balki, «qalb xotirasi» zarurligini ko‘pchilik olimlar ta’kidlashadi.

Usul sezgisi musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo‘lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o‘zaro o‘lchov va ritmik bog‘liqlik hamda mutanosiblikni ifodalaydi. Bunda insonning yurak urishi, nafas olishi, qadam tashlashi, hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatining barcha jihatlari bilan bog‘liqdir.

Usul sezgisi—rivojlantirish juda qiyin bo‘lgan qobiliyatlardan biridir. Shuning uchun ham butun sharq maqomdon ustozlari yosh shogirdlarining qo‘llariga doira berib, dastlabki mashqlarni usuldan boshilar ekan. O‘sha shogirdlar ustoz darajasiga yetguniga qadar shu uslubda faoliyatlarini olib borgan.

Hozirgi ta’lim tizimida ham o‘quvchida ta’limning dastlabki bosqichlaridan boshlab usul sezgisini tarbiyalab borish zarur. Bunda berilgan asarni xirgoyi (solfedjio) shaklida usulini doirada yoki stolga chalib kuylash ularda har bir tovush cho‘zimi va turoqlarining tashkiliy tuzilishi (yarimtalik, choraklik, nimchoraklik, duol, triol, kvartol, sekstol va boshqalar) haqida aniq tasavvur hosil qilishga katta zamin yaratadi. Ayniqsa O‘zbekiston davlat konservatoriysi ilg‘or solfedjio o‘qituvchisi, dotsent, san‘atshunoslik fanlari nomzodi S.Q.Matyoqbovaning dars mashg‘ulotlarida xalq kuylari va maqom usullarini talabalarga doirada yoki stolga chertgan holda solfedjio holida kuylatish tajribalari ritmik jihatdan murakkab bo‘lgan milliy musiqa va maqomlarni o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligini namoyon etmoqda.

O‘quvchilarda ijrochilik vazifalarining murakkablashib borgani sari usul sezgisi rivojlana boradi. Buning natijasida ularda erkin fikrlash, asarni o‘zicha erkin talqin qilishga moyillik seziladi. Bunda u o‘qituvchi yordamida Rubato — (lotincha—o‘g‘irlangan, notalarning cho‘zim miqdori aniq saqlanmagani holda ijrochining xohishi bo‘yicha kengaytirib yoki qisqartirib ijro qilish) va Agogika — (lotincha—yurgizish, ergashtirish. Musiqa ijrochiligidagi badiiy niyatni ko‘zlab asar sur’atini biroz

o‘zgartirish, ya’ni tezlatish yoki sekinlatish) o‘zgarishlarini qo‘llay olish malakalarini egallaydi. Bulardan tashqari o‘quvchining ansamblarda qatnashishi, turli cholg‘ular jo‘rligida hamohang bo‘lib ijro etishi, yonidagi jo‘rnavozni yaqindan his qilishi usul sezgisini shakllantirish va mustahkamlashning eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. *Musiqiy eshitishning qanday turlari bor?*
2. *Mutlaq (absolyut) eshitish bilan qiyosiy eshitishning farqini aytинг.*
3. *Xotiraning qaysi turlarini bilasiz?*
4. *Asarni yod olishda xotirani chiniqtirish yo‘llarini bilasizmi?*
5. *Usul sezgisini o‘lchov va ritm bilan aloqasi bormi?*
6. *Rubato va Agogika atamalarini izohlang.*

## **14. MUSIQIY ASARLAR USTIDA ISHLASHNING UMUMIY YO‘LLARI**

Har bir xonandaning musiqiy asar ustida ishlashi o‘ziga xos bo‘lib, ushbu jarayonga har kim o‘zicha yondoshadi. Ammo musiqiy asarlar ustida ishslash jarayonining yillar davomida shakllangan barcha uchun umumiyl tomonlari mavjud. Buni asosan uch bosqichga taqsimlash mumkin.

Birinchi bosqich—musiqiy asar bilan tanishuv va ijrochilik rejasini shakllantirish bo‘lib, ustozona tajribaga asoslanadigan bo‘lsak, dastlab asar bilan tanishib, she’r va g‘azalni tushungan holda o‘qib—yodlab umumiyl tasavvur hosil qilinadi. Undan keyin esa ijrochilik rejasini shakllanadi. Ijrochilik rejasini quyidagilarda o‘z aksini topadi.

Obyektiv yondashuv:

- a) asarnig qaysi turga mansubligi janri (oddiy qo‘shiq, ashula, katta ashula, yalla, maqom, raqs va h.k.);
- b) asar tonligini aniqlash;
- d) uning shakli (bir qisqli, ko‘p qisqli, turkum va h.k.);

e) qismlarining qiyofasi (obrazi) va xarakteri (quvnoq, g‘amgin, lirik, falsafiy, qaxramonona, hazil va h.k.);

f) qaysi davrda yaratilganligi, ohang va musiqiy tili, uslubi va bastakor ijodiga qisqacha ta’rif;

g) mazkur asarni kuylashda shakllangan an’analar.

Subyektiv yondashuv:

a) talabaning ijrochilik temperamenti (lirik, romantik, qayg‘uli, melanxolik xarakterdagи asarlarni ijro etishga moyilligi);

b) talabaning obrazli fikrlashi va ijodiy hayoloti;

d) talabaning asar muallifiga bo‘lgan munosabati (u bilan qiziqishi, bu haqida ko‘p narsani bilishi, befarqligi).

Shuningdek, yangi asarni o‘rganishda o‘qituvchining tutadigan yo‘li, o‘qituvchi va talaba fikrining bir maqsadga yo‘naltirilishi katta ahamiyatga egadir.

Ikkinch bosqich—asarni ijo qilish rejasini amalga oshirishga haratilgan bo‘lib, eng muhim bosqich hisoblanadi. Bunda asar matni aniqlanadi, asosiy ijrochilik va badiiy vositalar ko‘rib chiqiladi. Chunki o‘sha vositalar yordamida asar mazmuni va obrazi oshib beriladi. Musiqiy asarlar ustida ishlashda asar rivoji va undagi jumlalar, davriyalar, avjlar (kulminatsiya), kuy qismi, namudlar va boshqa tayanch nuqtalar aniq belgilanadi. Ularning qaysi biri yetakchi yoki yordamchi bo‘lishi musiqaning xarakteri va vazifalariga bog‘liq. Shuningdek, asarning texnik jihatdan sadolanishi, murakkab va qiyin joylari, avj va kulminatsiyasi belgilanib olinadi va bo‘laklarga bo‘lib, she‘r kuplet—to‘rtlik, naqoratlari, g‘azal xatlari, kuyning notasi bilan xususiylikdan umumiylilikka va umumiyligidan xususiylikka qarab xatosiz o‘rganiladi.

Ushbu jarayonda o‘z ijrosini eshitgan holda tanqidiy baholash, qiyin joylarini sekin sur’atda kuylash tavsiya etiladi. Ayniqsa texnik va tovush (avj) balandligi jihatdan murakkab bo‘laklarini turli talaffuz va artikulyatsiyalar vositasida kuylash katta yordam berishi mumkin.

Xonanda kichik bo‘laklar ustida qancha vaqt qunt bilan ishlamasin, asarni bir butunligini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak va ba’zida butunicha kuylab tasavvurini

yanada boyitib borishi maqsadga muvofiqdir. Butun ijro davomida esa me'yor tushunchasi ustoz va shogirdning diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Uchinchi bosqich—musiqiy asar ustida ishslashning yakuniy bosqichi bo'lib, asarni badiiy maqsadini, uning qismlarini chuqr o'rgangan holda yod olish, badiiy vazifaning pirovard natijalarini aniqlash va o'rganilgan qismlarni bir butun holga keltirish «yig'ish» va ijro ifodasini takomillashtirishdan iborat. Bunda cholg'u jo'rligi, ayniqsa jo'rnavoz yoki ansambl bilan hamohang bir-birlarini chuqr his qilgan holdagi umumiy bir butun ijroni amalga oshiruvchi bosqich hisoblanadi.

Bu bosqichda muallim mazkur asarni chuqr bilishi, uni ba'zi murakkab joylarini yengillashtirishga harakat qilmasligi lozim. Ya'ni G.G.Neygauz aytganidek «o'quvchiga asarni emas, balki, asarga o'quvchini moslashtirish kerak». Chunki ba'zi o'qituvchilar asarning ma'lum bir murakkab qismi yoki katta avjini o'quvchi eplay olmasa olib tashlaydilar, avjsiz yoki o'sha qismisiz kuylatadilar. Bunday ijroni to'laqonli bir butun asar ijrosi deb bo'lmaydi.

Asarni yod olish jarayonida musiqiy xotiraning barcha turlari: eshitish, ko'rish, sezgi—harakat, mantiqiy va «qalbdan» yod olish turlari ishga solinadi.

Yod olingandan keyin esa yanada ishonchli bo'lishi uchun she'r yoki g'azal hamda nota matnini yana bir marta ko'zdan kechirib kuylab ko'rish, asarning elektron yozuvini eshitib tanqidiy baholagan holda xotirada saqlash, boshqa pardadan (transpozitsiya) holida kuylab ko'rish maqsadga muvofiqdir. To'g'ri kelgan—kutilmagan joyidan sinab kuylab ko'rish orqali asar xotirada mustahkamlanadi.

Musiqiy asarlar ustida ishslashda asarning shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar yuqorida tamoyil va bosqichlarga asoslanadi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. Musiqiy asarlar ustida ishslashning nechta bosqichi mayjud?
2. Ijrochilik tafakkurining shakllanishi haqida gapiring.

3. *Qanday qilib o'qituvchi va o'quvchi fikri bir maqsadga yo'naltiriladi?*
4. *Asarni ijro qilish rejasi qay tarzda tuziladi?*
5. *Ijrochilik fikrini amalgaga oshirish jarayoni qanday davr?*
6. *Xususiylikdan umumiylikka va umumiylikdan xususiylikka qarab borish deganda nimani tushunasiz?*
7. *Musiqiy asarlar ustida ishlashda asarning tayanch nuqtalari qanday aniqlanadi?*
8. *Musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi nimadan iborat?*
9. *O'quvchiga asarni emas, balki asarga o'quvchini moslashtirish deganda nimani tushunasiz?*

## **15. TA'LIMNING TURLI BOSQICHLARIDA DARS O'TISH USLUBI**

Qadim-qadimlardan barcha xalqlarda xonanda va sozandalarni tarbiyalab yetishtirish juda murakkab ish bo'lib, yakka holda, ustoz-shogird uslubida olib borilgan. Ayniqsa Sharq xalqlarida bunga katta e'tibor bilan qaralgan. Ushbu an'ana asrlar sinovidan o'tib bizgacha yetib kelgan va hozirgi davrda ham eng samarali o'ziga xos uslub sifatida tan olingan.

O'qituvchining yakka holda dars o'tishi, ya'ni har bir o'quvchi va talabaga alohida yondoshishi, individual shaxsni tarbiyalash, uni har tomonlama kamol toptirish ustozdan juda katta ma'suliyatni talab qiladi. Shuning uchun ham u darsga tayyorlanishi va darsni rejalashtirishi juda muhim jarayon hisoblanadi. Bunda u qo'l ostidagi asarlarni ko'zdan kechirishi va lozim bo'lsa tahrir qilishi kerak. Har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda uslubiy va nota adabiyotlarini ko'rib chiqishi zarur. Mashg'ulot jarayoni esa quyidagi uch bosqichda amalgaga oshririladi:

- a) uyga berilgan vazifani tekshirish;
- b) yangi o'rganiladigan asar yoki avvalgi darslarda boshlangan ashulaning davomi bilan tanishish;

d) uy vazifasi ustida mustaqil ishlash yo‘l-yo‘riqlarini o‘qituvchining o‘zi kuylab ko‘rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Darslarda turli sinf va bosqich o‘quvchilarini tinglovchi sifatida qatnashishi ularning pedagogik malakasi, saviyasi va mustaqil fikrlashini yanada oshiradi. Ayniqsa «Muammoli o‘qitish» ya’ni asar mazmunini mustaqil talqin qilishda talabaning erkin musiqiy fikrlashini shakllantirish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Hech bir ilg‘or uslub, darslik yoki dastur darsni samarali va qiziqarli olib boradigan o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi albatta. Shuning uchun ham xonandani va umuman insonni tarbiyalashda o‘qituvchi-ustozning o‘rni beqiyos. Ijodiy sohada, ayniqsa musiqiy yo‘nalishda o‘qituvchi va uning dars o‘tish uslubi ta’limning oxirgi natijalariga hamda yetkazib chiqaratyotgan shogirdlarining sifatiga qarab belgilanadi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Xonandaga yakka dars o‘tishning o‘ziga xosligi va afzalliliklari haqida gapiring.
2. Mashg‘ulot jarayonining uch bosqichi nimalardan iborat?
3. Darslarda boshqa sinf o‘quvchilarini tinglovchi sifatida qatnashishiga qanday qaraysiz?
4. Muammoli o‘qitishdan maqsad nima?
5. Qaysidir bir ilg‘or uslub, darslik yoki dastur mashg‘uloni samarali va qiziharli olib boradigan o‘qituvchining o‘rnini bosa oladimi?
6. O‘qituvchi va uning dars o‘tish uslubi nimaga qarab baholanadi?

**16. KASB BO‘YICHA MUALLIM USTOZ VA  
MURABBIY, AN’ANAVIY XONANDALIKDA  
KONTSERT IJROCHILIK XISLATLARINING  
O‘ZIGA XOSLIGI**

San’at sohasining mutaxassislik sinfida ta’lim va tarbiya jarayoni uzlucksiz, yakka tarzda olib boriladi. Buning asosiy sabablaridan biri har bir talabaga haftada kamida ikki soat yakka

holda dars o‘tilgandan keyin mutaxassislik fani o‘qituvchisi talaba uchun o‘z ota-onasidek yaqin bo‘lib qoladi. Shunday ekan mutaxassislik bo‘yicha muallimning ham o‘z shogirdlarini har tomonlama kamol topishidagi ma’suliyati juda yuksakdir.

Mutaxassislik sinfida tarbiyalashning turli shakllari mavjud bo‘lib, mashhur ustozlar bu jarayonga turlicha yondoshganlar. Masalan: yakka suhbat va sinf majlislari o‘tkazish, ko‘pchilik bo‘lib jamoat joylariga va ko‘ngil so‘ragani borish, kontsertlar berish, ijrochi sozandalar haqidagi kitoblarni mutola qilish, ayniqsa keyingi paytlarda internet saytlardan mashhur ijrochilar hayoti va ijodi bilan tanishish va ijrolarini eshitish kabi tadbirlar hamda shogirdlarining shakllanishida ustozning shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega.

Xonandani kasbga tayyorlashda bolalar musiqa va san’at maktablari boshlang‘ich asosiy o‘quv dargohi sifatida xizmat qilsa, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari o‘rta bo‘g‘inni tashkil qiladi.



Oliy o‘quv yurtlari esa ikki bosqichli (bakalavriat va magistratura) oliy malakali mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan yuqori bo‘g‘in hisoblanadi. Ushbu o‘quv maskanlarida o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijrochilik mahorati, musiqiy adabiyotlardan xabardorligi, kasbiga muhabbati, o‘z ishiga

mas’uliyat hissi, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi, tanqidni to‘g‘ri qabul qilishi va boshqa sifatlarni o‘zida mujassamlash-tirishi juda muhimdir. U o‘z amaliyotida ustozlar tomonidan yaratilgan qadimiy asarlarni qayta tiklanishi va uslubiy adabiyotlar, texnik vositalarni qo‘llashi, referat va ma’ruzalar tayyorlashi, ayniqsa xalq kuylari va mumtoz asarlardan o‘z ovoziga moslashtirishi va tinmay o‘z ustida ishlashi katta ahamiyat kasb etadi.



Talaba qancha mehnat qilmasin, mehnatining asosiy mahsuli sahnadagi ijrosiga qarab baholanadi. Buning uchun u asarni kontsert yoki imtihondan ancha oldin yod olishi, o‘zi uni yuqori saviyada ijro qilish uchun jismoniy va ruhiy jihatdan tayyor bo‘lishi lozim. Ammo sahnadagi chiqishlar hamma vaqt ham ko‘ngildagidek bo‘lavermaydi. Buning turli sabablari bo‘lib, ulardan biri sahna hayajonidir. U ko‘pincha quyidagi kamchiliklar tufayli kelib chiqadi:

- a) tajribaning yetishmasligi;
- b) ba’zi muvaffaqiyatsiz chiqishlar;
- d) ijro etiladigan asarning yetarli tayyor emasligi;
- e) ovozining xastaligi, nosozligi va boshqa sabablarga ko‘ra sahna hayajoni ijrochi ishiga putur yetkazadi.

An’anaviy xonandalik sohasida ijrochi odobi (etika va estetika) va o‘zini tutishi juda muhim bo‘lib, ba’zida sahnada u yoq, bu yoqqa yurish, jo‘rnavozga yoki tinglovchiga orqasi

bilan turish va boshqa nomunosib harakatlar kuzatiladi. Bu chetdan juda ham xunuk ko‘rinadi. Bunday noma’qul odatlardan qutulish uchun xonanda mashg‘ulotlar paytida toza kiyingan holda oyna oldida o‘z harakatlarini kuzatishi va ustoziga o‘gitlariga qat’iy amal qilishi shart. Agar talaba aql va idrok bilan yo‘l tutsa, qunt bilan mehnat qilsa, qilingan harakat yuqori muvaffaqiyatlar keltirishi shubhasiz.



#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Xonanda o‘quvchi mehnatining mahsuli qayerda baholanadi?
2. Sahna hayajonining qanday sabablari bor?
3. Asarni kontsertdan qancha vaqt oldin tayyor qilgan ma ’qul?
4. Ijrochilik etika va estetikasi deganda nimani tushunasiz?
5. Mutaxassislik sinfiga muallimning o‘z shogirdlarini har tomonlama kamol toptirishdagi ma ’sulyyatini gapiring.
6. Shogirdlarining shakllanishida ustozning shaxsiy namunasi qanday bo‘lmog‘i kerak?
7. Bo‘lg‘usi ustoz-muallim o‘z ustida qay tarzda ishlashi lozim?
8. Xonandani kasbga tayyorlashda bolalar musiqa va san’at maktablari boshlang‘ich asos bo‘la oladimi?

## **17. ANSAMBL ASARLARI USTIDA ISHLASH, JO'ROVOZ BO'LIB KUYLASH VA NOTA O'QISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Musiqiy oliv o'quv yurtlari bakalavr bosqichini bitiruvchilariga boshqa ixtisosliklar qatori yakkaxon xonanda, ansambl ijrochisi ixtisosligi ham beriladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida ko'pchilik bo'lib, ya'ni jamoa shaklida ansambllarda xonish qilishni o'rganish talaba uchun katta ahamiyatga ega. Ansambl ijrochiligidagi talabada yonidagi hamkasblarini har tomonlama sezish, ular bilan hamnafaslikni-jo'rnavozlikni his qilish va hamohang bo'lib ashula aytish malakalari shakllanadi. Xonandalar ansambl ishtirokchisi bo'lgan talabaning oldida qator vazifalar turadi. Oldin u asarlarni faqat jo'rnavoz bilan birgalikda aytib ko'rgan bo'lsa, endi katta bir jamoa orasida ular bilan bir tan, bir jon bo'lib ijro qilishi, bunda barcha teng, barobar ekanligi va doimo ustoz nazoratida bo'lishi kerakligini hech qachon esdan chiqarmasligi, zarurligi uqtiriladi.

Talaba ansambllarda qatnasha boshlashi bilan g'azal yoki she'rdagi o'zi kuylaydigan qatorlarini yonidagi sheriklari qatori aytishi, barcha murakkabliklarni yengib o'tishi kerak. Bunda mutaxassislik fani muallimi va jo'rnavozlarning hizmatlari katta bo'ladi. Ular talabaga sinf mashg'ulotlarida:

- a) ansambl a'zosi jamoa ijrosini bir butun va o'z partiyasini shu ijroning bir bo'lagi deb bilishi;
- b) ansambl ishtirokchisi o'z partiyasi xarakteri, sadolanishi, tovush kuchi va ovozining tozaligi (intonatsiya) va boshqa sifatlarini ansambl xonandalarining ovozlariga moslab olib borishi;
- d) jumlalarni ijro etishda mohirlik, yetakchi va jo'r bo'lувчи овоzlар almashinishini tez fahmlashi hamda shunga munosib ijro malakalarni singdirishi zarur. Ayniqsa xonandalarga xos bo'lgan ijrochilik nafasi, tovush cho'zimi, uning tozaligini har doim eshitish nazorati orqali boshqarib borishi va shaxsiy usul sezgisini jamoa usul sezgisiga bo'ysundirishi va moslashi katta ahamiyatga ega.

Talabaning talaffuzi, so‘zlarni ovozda ijro etishda og‘iz artikulyatsiyasi, uni shakllantirilishi malakalarini yaxshi egallaganligi, jamoa bo‘lib ijro qilishning muhim shartlaridan biridir. Bunda oddiydan murakkabga qarab borish, sinfda va mustaqil mashg‘ulotlarda izchillik, muntazamlik hamda doimo muallimning e’tibori muhimdir.



Vohaga mansub shevada talaffuz etish va boshqa kamchiliklarni yo‘qotish ansamblida ijro etilgan asarlarni jamoa mashg‘uloti tugagandan keyin ham mustaqil ijro etish, asarning qiyin joylarini qunt va chidam bilan erinmasdan o‘rganish zarur. Ayniqsa o‘qituvchi talabaga notanish asarni jamoaviy ijro paytida yakka o‘zi kuylashi davomida asar oxirigacha xato qilsa ham uni to‘xtatish yaramaydi. Chunki talaba to‘xtamasdan tez o‘qishga o‘rganishi zarur. Asarni oxirigacha aytib bo‘lganidan keyin esa talabaga xatolari tushuntiriladi va o‘sma mashg‘ulot boshidan yana shu tarzda davom ettiriladi. Jamoanining boshqa a’zolari ham bundan ibrat olishadi. Bunda talaba iloji boricha kamroq xato qilishi uchun quyidagicha yo‘l tutish kerak:


- a) yangi ashula matnini ko'rib tanishish, uning she'riy ma'nolarini anglash, metroritmik tuzilishi, dinamikasi, shtrixlari, asarning xarakteri va maqsadini bir qarashda aniqlash;
- b) ashulani murakkab bo'lgan joylarini hisobga olgan holda sur'at tezligini (vaqtinchalik) belgilash;
- d) talabani so'z matnini to'liq qamrab olishga (ko'rinishi, mazmuni) undash, bunda uning diqqati ijro etilayotgan bir so'ziga emas, bir necha so'z oldinga, hatto bir necha bayt oldinga qaratilishi zarur.

Talabaning kuylash va so'z matnini o'qish, yodlash malakalarini oshirish uchun xonandalar ansambl asarlaridan olingan ijrochi uchun murakkab qismlarini takror aytish, shuningdek, o'quvchiga tanish asarlarni boshqa pardadan (transpozitsiya) ijro qilish ham ushbu malakani yanada takomillashtiradi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. *Ansambl asarlari ustida ishslashda mutaxassislik bo'yicha muallim va jo'rnavozning roli qanday?*
2. *Ansambl ijrochiligidagi xonanda qanday malakalarni egallaydi?*
3. *So'z matnini o'qish, talaffuz va og'iz artikulyatsiyasi to'g'ri shakillantirilishi jamoa bo'lib ijro qilishning qanday shartlaridan hisoblanadi?*
4. *Ansambl ijrosi rivojlantirishda boshqa pardadan (transpozitsiya qilib) aytishning ahamiyati bormi?*
5. *Ansambllar yakka ijordan farqi bormi?*
6. *Hamnafaslarning ovozlari biri-biriga mos bo'lishi shartmi?*





---

---

## PEDAGOGIK DASTURLAR RO'YXATI

1. Y.Rajabiy «O'zbek xalq musiqasi» I,II,III,IV,V tomlar 1955–59.
2. Y.Rajabiy «Shashmaqom» I,II,III,IV,V tomlar T. 1966–72.
3. Y.Rajabiy «Musiqa merosimizga bir nazar» T. 1978.
4. E.Romanovskaya «O'zbek xalq qo'shiqlari» T. 1939.
5. E.Romanovskaya «Zapisi muzikalnogo folklora» T. 1957.
6. M.Yusupov «O'zbek xalq musiqasi» T. VII, IX tom, 1962.
7. M.Yusupov «Xorazm maqomlari» VI tom, T 1961.
8. M.Yusupov «Xorazm maqomlari» I,II,III,IV,V tomlar. 1980–84.
9. O.Ibrohimov «Sahih suvoriyilar» T. 2004.
10. M.Xudoynazarov «Hojixon Boltaev» T. 2004.
11. M.Xudoynazarov «An'anaviy yakkaxon qo'shiqchilik» T. 2005.
12. M.Xudoynazarov «Sarvi xiromonim mening» T. 2006.
13. M.Xudoynazarov «An'anaviy ansambl» T. 2006.
14. M.Xudoynazarov «Qalb navolari» T. 2011.
15. B.Matyakubov «Doston navolari» T. 2009.
16. A.Jalilov «Kommuna Ismoilova» T. 2009.
17. O.Matyoqubov, R.Baltaev, H.Aminov «Xorazm tanbur chizig'i» T. 2010.
18. K.Bo'rieva «An'anaviy xonandalik» T. 2008.
19. R.Yunusov «Fahriddin Sodiqov» T. 2005.
20. S.Begmatov «Orifxon Hotamov» T. 2000.
21. S.Mannopov «So'nmas Navolar» Farg'ona 2002.
22. E.Matyusupov «Ustozni eslab» Urganch 2007.
23. P.Zokirov «Bastakorlik ijodiyoti» T. 2009.
24. N.Ahmedova «G'ulomjon Hojiqulov» T. 2008.
25. I.Rajabov «Maqomlar masalalariga doir» T. 1971.
26. I.G'aniyeva «Tanovorlar» T., 2003.
27. Z.Suyunova «G'anijon Toshmatov» T., 2009.

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **Adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. «Ma’naviy yuksalish yo‘lida» Toshkent, 1998-yil, 480 bet.
2. Islom Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» Toshkent, 2008-yil, 143 bet.
3. I.A.Karimov «Milliy istiqlol mafkurasi–xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» Toshkent, 2000-yil, 32 bet.
4. Kaykovus «Qobusnoma» Fors tilidan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi, nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov, Toshkent, 2006-yil.
5. I.Koncheva, A.Yakovleva, «Vokalniy slovar» lug‘at. Leningrad, 1986-yil.
6. D.Aspelund, «Razvitie pevtsa i ego golosa» Moskva–Leningrad, 1952 yil.
7. I.K.Nazarenko, «Iskusstvo peniya» Moskva, 1963 yil.
8. M.Rizayeva, «Yosh xonandalarning kamoloti» Toshkent, 2003-yil.
9. I.P.Brizgalov, «Shkola peniya dlya baritona i basa» Toshkent, 1987-yil.
10. O.Matyoqubov, «Maqomot» Toshkent, 2004-yil.
11. M.G.Prives, N.K.Losenkov, V.I.Bushkovich, «Anatomiya cheloveka» Moskva, 1985-yil.
12. B.Matyakubov, «Doston navolari» Toshkent, 2009-yil.
13. E.B.Babskiy, V.D.Glebovskiy, A.B.Kogan. «Fiziologiya cheloveka», Tibbiyot institutlari uchun o‘quv qo‘llanma, Moskva, 1984-yil.

14. E.Begmatov, M.Tursunpo'latov, «O'zbek nutqi asoslari» Toshkent, 1992-yil.
15. M.Axmedov, «Xoji Abdulaziz Abdurasulov» Toshkent, 1974-yil.
16. O'.Rasulov, «An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi» Toshkent, 2006-yil.
17. E.Petrova, «O dinamike zvuka pevcheskogo golosa» Moskva, 1963-yil.
18. P.V.Golubev, «Soveti molodim pedagogam—vokalistam», Moskva, 1963-yil.
19. S.X.Yuldasheva, «Razvitie muzikalnogo vospitaniya i obrazovaniya v Uzbekistane» Toshkent, 1979-yil.
20. I.Rajabov, «Maqomlar masalasiga doir», Toshkent, 1963.
21. A.Nazarov, «Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika hususida» Toshkent, 1995-yil.
22. O.Ibrohimov, «Fergana-Tashkentskie makomi» Toshkent, 2006-yil.
23. M.A.Hamidova, O.Ibrohimov, D.Mulajonov, «Xonandalik san'ati, Jahon va O'zbek milliy an'analari», Toshkent, 2009-yil.
24. R.Yunusov, F.Mamadaliev «Milliy musiqa ijrochiligi masalalari» Toshkent, 2001-yil.
25. K.Olimboeva, M.Ahmedov, «O'zbekiston xalq sozandalari» Toshkent, 1959-yil.
26. V.Stasov «Izbrannie sochineniya» Moskva, 1952-yil.
27. V.Belyaev, «Muzikalnaya folkloristika v Uzbekistane» Toshkent, 1963-yil.
28. B.S.Salixov va B.J.Matyakubov, «O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi tarixi», Toshkent, 2007-yil.
29. Z.Markova, M.Lvova, D.Asperlund, «Gigiena golosa», Moskva, 1950-yil.
30. T.Vizgo «Razvitiya muzikalnogo iskusstvo Uzbekistana i ego svyazi s russkoy muzikoy» Moskva, 1970-yil.
31. T.Vizgo «Istoriya uzbekskoy i sovetskoy muziki» Toshkent, 1972-yil.

32. R.Jumaniyozov, «Qadimiy Xorazm tarixi» Urganch, 1993-yil.
33. G.A.Lapis, «Zdorovye vsey semyi» Sankt-Peterburg, 2003-yil.
34. S.Begmatov «Hofizlik san'ati» Toshkent, 2007-yil.
35. T.B.G'ofurbekov «Folklorne istoki uzbekskogo professionalnogo muzikalnogo tvorchestva» Toshkent, 1984.
36. A.H.Jabborov «O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari» Toshkent, 2004-yil.
37. M.N.Rizayeva, S.A.Ushnurseva «Ovoz uchun mashqlar» (o'quv-metodik tavsiyalar) Toshkent, 1992-yil.
38. M.Xamidova «Halima Nosirova» Toshkent, 1998-yil.
39. R.Y.Yunusov «O'zbek xalq musiqa ijodi» (ilmiy-uslubiy tavsiyalar) Toshkent, 2000.
40. «Entsiklopedicheskiy slovar yunogo muzikanta» Moskva, 1985-yil.
41. I.Rajabov «Maqomlar» (nashrga tayyorlovchi O.Ibrohimov) Toshkent, 2006-yil.
42. S.Begmatov «Orifxon Hotamov» Toshkent, 2000-yil.
43. S.Mannopov «So'nmas Navolar» Farg'ona, 2002-yil.
44. A.Jalilov «Kommuna Ismoilova» Toshkent, 2009-yil.
45. L.Baranek «Akusticheskie izmereniya» Moskva, 1952.
46. P.Baranovskiy, E.Yutsevich «Zvukovistniy analiz svobodnogo melodicheskogo stroya» Kiev, 1956-yil.
47. L.D.Rabotnov «Osnvi fiziologii i patologii golosa pevtsov» Moskva, 1932 yil.
48. G.Helmyholtz «Osnovi i fiziologiya golosa» 1913-yil (tarjimon va qayta nashrga tayyorlovchi O.Artyomov) Moskva, 1960-yil.
49. V.Bagadurov «Ocherki po istorii vokalnoy metodologii» 2-nashr, Moskva, 1956-yil.
50. Y.Barsov «Vokalno-ispolnitlskie i pedagogicheskie printsipi» Leningrad, 1968-yil.
51. L.Dmitriev «Golosoobrazovanie u pevtsov» Moskva, 1962.
52. V.Morozov «Vokalniy slux i golos» Moskva-Leningrad, 1965-yil.

53. V.Morozov «Tayni vokalnoy rechi» Leningrad, 1967.
54. A.Yegorov «Gigiena golosa i ego fiziologicheskie osnovi» Moskva 1962-yil.
55. E.Matysupov «Ustozni eslab» Urganch, 2007-yil.
56. O.Ibrohimov «Sahih suvoriyalar» Toshkent, 2004-yil.
57. H.Hamidov «O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi» Toshkent, 1996-yil.

### **Maqolalar**

1. Sh.Matyoqubov. «Mumtoz navolar» «Yoshlar» radiokanali arxividan. Toshkent, 2004.
2. «Navosoz yurakdan o'lmas navo» kitobidan, Toshkent, 2005.
3. Maqolalar to'plami F.I.Shalyapin, «Vospominaniya» Moskva, 1958.
4. AQSh, Arizonadagi Tuksun universiteti olimlari, «Medical atlas» 1990.
5. Respublika musiqa kolleji o'qituvchilari, «Maqolalar to'plami», Toshkent, 2005.
6. Maqola va ma'ruzalar to'plami, «Shashmaqom saboqlari» Toshkent, 2005.
7. Ovoz mavzusi, «Salomatlik entsiklopediyasi», Toshkent, 1988.
8. M.Ro'ziyeva, G.Solomonova «So'fiylar marosimlarida musiqa va raqs». «San'at» jurnali. 2-soni, 2008.
9. T.Sedix «O'zbekistonda jaz san'ati» «San'at» jurnali 2-soni, 2008.
10. G.Muxammedova «Muyassar Razzoqovaning ijodiy yo'li» «San'at» jurnali 2-soni, 2008.
11. H.Boltaeva «O'zbek mumtoz musiqasi» «Yoshlar» radiokanali arxividan Toshkent, 2010–2011 yy.
- 12 Sh.Matyoqubov «Mumtoz navolar», «Mash'al» radiokanali uchun taylorangan turkum eshittirishlar, Toshkent, 2011–2012.

### **Dissertatsiyalar**

1. P.S.Ostrovskiy, «Gorlovoe penie» (san'atshunoslik fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasi) Leningrad, 1952.
2. R.Abdullayev, «Janr katta ashula i ego nositeli», (san'ashunoslik fanlari nomzodi dissertatsiyasi), Toshkent, 1982.
3. D.Mullaqandov, «O'zbek xonandaligi borasida ba'zi juz'iy masalalar va rus vokal maktabi badiiy estetik talablari va tajribalari bilan bog'liqligi» (nomli san'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati) Leningrad, 1954.
4. B.X.Madraimov «Xorazm musiqa folklori vositasida 5–7 sinf estetik tarbiyalash» (Pedagogika fanlari nomzodlik dissertatsiyasi) Toshkent, 2008.
5. M.A.Nabieva «Ispolzovanie narodnoy muziki v sisteme muzikalno-pedagogicheskogo obrazovaniya» (Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasining avtoreferati) Dushanbe, 1994.

---

---

## M U N D A R I J A

1. Kirish .....	3
2. Ashula ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslari .....	9
3. Xonanda ovozlarining ruhiyati.....	13
4. Xonandalikka o'qitish uchun nomzodlar tanlashning o'ziga xosligi.....	17
5. O'quvchining musiqa san'atiga va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash.....	21
6. Inson ovozining ijro va ifoda imkoniyatlari, tovush hosil qilish jarayoni, dinamik belgilar va umummusiqiy ifoda vositalari.....	24
7. Ovoz apparatining anatomik va fiziologik tuzilishi, kekirdak, tomoq va yutqinning vazifasi.....	30
8. Xonandalikda shtrixlar, talaffuz va artikulyatsiya.....	39
9. Ovoz mellizmlari va ijro uslublari.....	45
10. Asarlardagi nola va qochirimlar nisbati.....	49
11. Xonandalarining ijrochilik nafasi.....	51
12. Ovoz tayanchi.....	55
13. Musiqiy eshitish qobiliyati, xotira va usul sezgisi.....	57
14. Musiqiy asarlar ustida ishlashning umumiyl yo'llari...	62
15. Ta'limning turli bosqichlarida dars o'tish uslubi.....	65
16. Kasb bo'yicha muallim ustoz va murabbiy, an'anaviy xonandalikda kontsert ijrochilik xislatlarining o'ziga xosligi.....	66
17. Ansambl asarlari ustida ishlash, jo'rovoz bo'lib kuylash va nota o'qish malakalarini rivojlantirish yo'llari.....	70
Pedagogik dasturlar ro'yxati.....	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	76

**SHAVKAT MATYAKUBOV**

**AN'ANAVIY XONANDALIKDA  
O'QITISH USLUBIYATI**

*Oliy musiqiy o'quv yurtlarining  
bakalavr bosqichi uslubiyat fani uchun  
o'quv qo'llanma*

Bosishga ruxsat etildi 3.02.2015. Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .

Times TAD garniturasi. Shartli b.t. 5,0.

Adadi 350 nusxa.

«Building print» MCHJ da chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 40.

*Qaydlar uchun*

*Qaydlar uchun*